

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**



**SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti**

«TASDIQLAYMAN»
Iqtisodiyot va boshqaruv
fakulteti dekani, i.f.n.,
dotsent _____

F.B.Ahrorov

«____» _____ 2014 yil

«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi» kafedrası
5610100-«Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish» yo'nalishi bo'yicha

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “Oqdaryo tumani suv istemolchilari uyushmasi korxonasi
faoliyatining tahlili” (Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklari va S.I.U. misolida)**

**Bajardi: 5610100-«Fermer xo'jaligini
boshqarish va yuritish» yo'nalishi
4-bosqich talabasi**

Xidirov Sirojiddin

Ilmiy rahbar: dotsent

T.Hayitov

Ilmiy maslahatchi: professor

O.Murtazayev

**Bitiruv malakaviy ish
muhokama qilindi va himoyaga
ruxsat berildi**

Kafedra mudiri, i.f.d., professor
_____ **O.Murtazayev**
«____» _____ 2014 yil

SAMARQAND – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR SHARHI..	6
2. SIU HUDUDIDAGI FERMER XO'JALIKLARI RESURSLARIDAN FOYDALANISH HOLATI	12
2.1. Yer resurslari va ulardan foydalanish holati tahlili.....	12
2.2. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish holati tahlili.....	16
2.3. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish holati tahlili.....	19
3. SUV ISTE'MOLCHILARI UYUSHMASI SAMARADORLIGI TUSHUNCHASI, MEZONI VA BOSHQARUVI.....	23
3.1. Suv iste'molchilari uyushmasi, uning ahamiyati va boshqaruvi.....	23
3.2. Suv iste'molchilari uyushmasi faoliyati boshqarishning huquqiy asoslari.....	33
3.3. Suv resurslaridan foydalanish samaradorligining hozirgi holati tahlili.....	36
4. FERMER XO'JALIKLARIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDA- LANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	43
4.1. Tuproq unumdorligini oshirish va yerga ishlov berish tamoyillari va ularning afzalliklari.....	43
4.2. Sug'orishda yangi texnologiyalarni qo'llash.....	47
4.3. Meliorativ holatni yaxshilashga investitsiyalarni kiritish.....	51
5. MELIORATIV TEXNIKALARNI ISHLATISH HAMDA TA'MIR- LASH JARAYONIDA HAVFSIZLIKNI TA'MINLASH.....	54
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	63
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	68

KIRISH

Qadimdan mamlakatimiz hududida suv hayot manbai sifatida qadrlangan, tirikchilikning birinchi omili sanalgan, uni muqaddas bilib, asrab - avaylab, tejab - tergap sarflangan. Bu qarashlar o'z mohiyatini bugunham yo'qotgan emas. Darhaqiqat mamlakatimiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini suvsiz tasavvur etish mumkin emas. Shuning uchun suvdan maqsadli, tejab - tergap foydalanish hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yana ham dolzarb bo'lib turibdi. Chunki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy qismi bo'lgan paxta, g'alla va boshqa mahsulotlar yetishtirish bevosita suv ta'minoti bilan chambarchas bog'liq.

Respublika bo'yicha sug'orish uchun yiliga o'rtacha 55 mlrd. m³ suv talab etiladi. Bu ko'rsatkich Markaziy Osiyo respublikalarida iste'mol qilinadigan suvning deyarli yarmiga tengdir. Respublikada foydalaniladigan suvning ko'p qismi qo'shni davlatlar hududlaridan oqib keladi.

Respublikada foydalaniladigan suvning 85 foizi qishloq xo'jaligida ishlatiladi. Dehqonchilikka mo'ljallangan yerlarning 98 foizini sug'oriladigan maydonlar tashkil etadi. Ko'rinib turibdiki, suvdan tejab-tergap, samarali foydalanilmasa, kelgusida suv ta'minotida muammolar kelib chiqishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi "Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-3226-sonli Farmoniga asosan respublikada fermer xo'jaliklarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish deb belgilandi. Farmonga muvofiq respublika qishloq va suv xo'jaligida o'tkazilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, soha boshqaruvini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 28 iyundagi 290-sonli va 21 iyuldagi 320-sonli qarorlari qabul qilindi. Respublika suv xo'jaligida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Suv resurslarini ma'muriy-hududiy boshqarish prinsipidan havzaviy boshqarish prinsipiga o'tkazildi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini qayta qurish jarayoni tamoyilida suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish va sohani bozor munosabatlari prinsiplariga asosan qayta qurishni taqazo etmoqda.

Suv iste'molchilari uyushmasi (SIU) zimmasiga xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlarini bir maromda ishlatish, ikkilamchi suv iste'molchilari o'rtasida adolatli suv taqsimotini o'rnatish, sug'orishning ilg'or texnologiyalarini joriy qilish hamda ularning huquqlarini himoya qilish kabi vazifalar yuklatildi. SIU - bu bir sug'orish tarmog'ida joylashgan barcha ikkilamchi suv iste'molchilarining ixtiyoriy ravishda birlashgan tashkilotidir.

Prezident Farmoni bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida fermer xo'jaliklariga ustuvor yo'nalish berilganligi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida fermer xo'jaliklarining ulushi ortib borayotgan sharoitda ularga belgilangan me'yorlarda suv yetkazib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan SIUning ishonchli hamkor sifatidagi o'rni o'sib borishi tabiiy.

Endilikda SIUlar faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha respublikada muayyan qonunchilik bazasi yaratildi. Jumladan, SIUlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 77-moddasiga asosan notijorat shaklda tashkil etilib, ular o'z a'zolarining badallari hisobiga faoliyat ko'rsatadi.

Suv iste'molchilari uyushmasi mustaqil yuridik shaxs hisoblanib, o'z faoliyatini xo'jalik hisobi tamoyillari asosida olib boradi. O'z faoliyatini fermer va dehqon xo'jaliklari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlar bilan shartnoma asosida suv yetkazib berish xizmatlari uchun to'langan mablag'lari hisobidan amalga oshiradi.

Suv iste'molchilar uyushmalariga qator imtiyozlar yaratilgan. Chunonchi, SIUlar notijorat shaklda faoliyat ko'rsatgani uchun O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan notijorat tashkilotlarga berilgan barcha imtiyozlardan foydalanadilar. Respublika Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 yanvardagi 8-sonli qaroriga asosan suv iste'molchilari uyushmalari xizmatlari qo'shilgan qiymat solig'i, foyda va mulk solig'i hisoblanishi va to'lanishidan 2 yil muddatga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi PF-3342-Farmoniga asosan suv iste'molchilari uyushmasining xizmatlari qo'shilgan qiymat solig'i, daromad va mulk solig'ini qo'shish va to'lashdan 3 yil muddatga ozod qilingan.

Tadqiqot ob'yekti hisoblangan Oqdaryo tumanida 1 ta SIU mavjud bo'lib, Oqdaryo Sharshara Navro'z SIU deb nomlanadi. SIU tashkil etilgan sana: 2010 yil 24 oktyabr. Adliya boshqar-masidan berilgan guvohnoma raqami: №0024. SIU 28657 gektar yer maydoniga suv resurslari yetkazib berish bilan shug'ullanadi. SIUda 36 kishi mehnat qilib, o'rtacha 1 xodim hisobiga 1061 ga yer maydoni to'g'ri keladi.

Tadqiqotimiz maqsadi yildan yilga kuchayib borayotgan suv tanqisligi davrida Oqdaryo tumani misolida suv iste'molchilari uyushmalarida boshqaruvning hozirgi holati va resurslaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilgan holda ishlab chiqarishga ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- SIU xizmat ko'rsatuvchi hududidagi fermer xo'jaliklari resurslari salohiyatini tahlil qilish;
- suv iste'molchilari uyushmasi va ularda resurslar samaradorligini ko'rib chiqish;
- suv iste'molchilari uyushmasini boshqarish samadorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlili;
- suv iste'molchilari uyushmasida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini topish;
- suvdan foydalanishda yangi texnologiyalar qo'llanishini ko'rib chiqish.

1. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR SHARHI

Suvdan samarali foydalanish qadimdan iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri deb hisoblangan. Shuning uchun ham sug'orish tizimlarini samarali boshqarish, ya'ni sun'iy sug'orish inshootlarini vujudga keltirish, yerlarni sug'orishda samarali texnika va texnologiyalardan foydalanish, sug'orma suvni tejash va muhofaza qilish, suv inshootlaridan samarali foydalanish muammolarini hal qilishga qaratilgan g'oyalarning vujudga kelishi uzoq tarixga ega.

Ushbu muammolar ustida Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Burxoniddin Marg'iloniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek va boshqalarning asarlarida sun'iy sug'orish inshootlarini barpo qilish, suv taqsimotini boshqarish, suvni tejash va toza saqlash, dehqonchilikda suvdan oqilona foydalanish va boshqa muammolar to'g'risida ko'pgina foydali fikrlar bayon qilingan.

Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishganlaridan va bozor iqtisodiyotiga o'tish ustuvor yo'nalishlardan biri deb e'lon qilganlaridan keyin ushbu davlatlarda suv zahiralarini taqsimlash, ularni birgalikda boshqarishni takomillashtirish, suvdan samarali foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha ko'pgina muammolar vujudga keldi. Ushbu muammolarni yechishga qaratilgan Duxovniy V.A., Ataniyazov B., Doschanov T.D., Abduraximov I., Toshmatov X., Daulatov Ye., Kirpichnikov V.S., Dvorkina T.V., Muxammadiyev O'. larning ilmiy ishlari katta ahamiyatga ega. Biroq bu ishlarda qo'yilayotgan muammo, birinchidan, turli fanlar nuqtai-nazaridan va turli yo'nalishlarda o'rganilgan, ikkinchidan, markazlashtirilgan, rejali boshqariladigan jamiyat iqtisodiy qonunlariga asoslanib o'rganilgan. Ushbu adabiyotlar o'rganilayotgan mavzuning ayrim qirralarini boyitishga va ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri yondoshishga yordam beradi.

Quyida bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida foydalanilgan ayrim adabiyotlarga sharh berib o'tamiz:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. O'zbekiston Respublikasida suvdan foydalanish va suv iste'moli tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. -Toshkent, 2013. -12-son, 155-modda.

Mazkur Nizomda ba'zi suv xo'jaligiga oid tushunchalarga ta'rif berib o'tilgan:

- suvdan foydalanish — yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan suv resurslarini suv ob'yektidan olmagan holda ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish;

- suvdan foydalanuvchi — suv resurslarini suv ob'yektidan olmagan holda ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

- suv iste'moli (suvni iste'mol qilish) — yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'z ehtiyojlarini qondirish uchun suv resurslaridan ularni suv ob'yektidan belgilangan tartibda olgan holda foydalanish;

- suv iste'molchisi — o'z ehtiyojlarini qondirish uchun suv ob'yektidan suv resurslarini belgilangan tartibda oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

- suv iste'molchilari uyushmasi — yuridik shaxs bo'lgan suv iste'molchilari tomonidan suvga doir munosabatlar sohasidagi o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek umumiy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish uchun ixtiyoriy asosda tashkil etiladigan nodavlat notijorat tashkiloti;

- suv ob'yekti — suvlar doimiy ravishda yoki vaqtincha to'planadigan va suv rejimining o'ziga xos shakllari va belgilari bo'lgan tabiiy (jilg'alar, soylar, daryolar va boshqalar) hamda sun'iy (ochiq va yopiq kanallar, shuningdek kollektor-drenaj tarmoqlari) suv oqimlari, tabiiy (ko'llar, dengizlar, yer osti suvli qatlamlari) va sun'iy (suv omborlari, sel suvlari to'planadigan joylar, hovuzlar va boshqalar) suv havzalari, shuningdek buloqlar va boshqa ob'yektlar;

- suv resurslari — foydalaniladigan yoki foydalanilishi lozim bo'lgan suv ob'yektlari suvlari.

2. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil

davom ettirish yili bo'ladi: Prezident Islom Karimovning 2013-yilning asosiy yakunlari va 2014-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida//Xalq so'zi. 18.01.2014.

Prezident o'z ma'ruzasida quyidagilarga e'tibor qaratgan: Bugungi fermer xo'jaliklari samarali faoliyat yuritish uchun o'z ixtiyorida ijara asosidagi yetarlicha ekin maydonlariga ega bo'lgan, yuksak samarali zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, ilg'or texnologiyalarni puxta egallagan yirik xo'jaliklardir. Muxtasar aytganda, ular qishloqlarimizning tayanch ustunidir.

3. Abdug'aniyev A., Sultanov N. Irrigatsiya va meliorasiyaga sarflanadigan investitsiyalarning samaradorligini oshirish//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2012. -№1. -39-40-b.

Maqolada mualliflar Qashqadaryo viloyati misolida suv iste'molchilari uyushmalari va ularga sarflangan investitsiyalar samaradorligi holatini o'rganishib, taklif va tavsiyalarini berishgan.

4. Bezborodov K., Komilov B., Esanbekov M. Tomchilatib sug'orish: qulay, arzon va samarali//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2008. -№3. -7-b.

Mualliflar maqola orqali suv resuslarining hozirgi cheklangan sharoitida qulay, arzon, samarali bo'lgan tomchilatib sug'orishni g'o'za misolida o'rganib chiqib quyidagi xulosalarga kelishgan:

«Tomchilatib sug'orish quyidagi afzalliklarga ega:

- Paxta bir vaqtda va bir me'yorda sug'oriladi;
- Mavsumiy suv me'yori 31,9% tejaladi;
- Yoqilg'i moylash materiallari – 30-40%, mineral o'g'itlar – 20-25% tejaladi, begona o'tlar kamayadi, tuproq tarkibi yaxshilanadi;
- Tuproq eroziyasi to'xtaydi;
- Hosildorlik 4-5s/ga.ga oshadi;
- G'o'za kamalliklari kamayib, bir vaqtda bir ishchi 10 soatda 4 ga yerni sug'orishi mumkin»

5. Hamrayev Sh., Sheraliyev N. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishda Suv iste'molchilari uyushmasining o'rni. –Toshkent, 2006.

2006 yilda respublikadagi barcha suv iste'molchilariga, shu jumladan, fermer xo'jaliklari va suv iste'molchilari uyushmalariga uslubiy yordam berish maqsadida ushbu kitob tayyorlangan. Kitobda qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishda SIUning o'rni va tashkiliy asoslari, SIUda suvdan foydalanishni rejalashtirish va tashkil etish, SIUning moliyaviy boshqaruvi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini oshirishda SIUning ahamiyatiga doir materiallar tegishli tartibda berilgan.

6. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. –T.: Moliya, 2005.

Mazkur darslikning 11-bobi «Yer-suv resurslari va ulardan samarali foydalanish» deb atalib, u U.Pettining «Yer boylikning onasi, mehnat esa uning otasidir» degan jumalari bilan boshlanadi hamda yer resurslari iqtisodiy asoslari yoritilgan.

7. Matkarimov M.M. Suv tejovchi va muhofaza qiluvchi texnologiyalarni qo'llash jarayonlarini boshqarish. -Samarqand, 2006.

Mazkur avtoreferat Quyi Amudaryo mintaqasi hududida suv resurslaridan foydalanish holati, unga to'lov to'lashning turli variantlari, Orol dengizi hududi mamlakatlarida suv resurslarini taqsimlash usullari, suv resurslarini boshqarish, suv tejovchi va muhofaza qiluvchi texnologiyalar yoritilgan. Mazkur avtoreferatda bugungi kun suv xo'jaligida asosiy muammo bo'layotgan Orol dengizi hududi mamlakatlarida suv resurslarini taqsimoti bo'yicha O'zbekistonga quyidagicha suv zahiralarini taqsimlangan:

«...suv zahiralarini taqsimlashda O'zbekiston Respublikasiga tegishli suv miqdori 1-usulda 16,48 km³, 2-usulda 23,88 km³, 3-usulda 42,76 km³, 4-usulda 48,82 km³ suv miqdoriga ega bo'ladi...»

8. Qannazarova Z., Xajiyev M. Suv xo'jaligini boshqarish hamda resurslarini himoya qilish //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2013. -№9. -29-b.

Mualliflar fikricha, suv resurslarini boshqarishda ekotizm yo'nalishi nuqgai nazaridan qarash Markaziy Osiyo suv resurslarining ahamiyati va tutgan o'rnini boshqacha baholash imkoniyatini beradi. Dastavval suv oqimi hosil bo'ladigan. Tojikiston Respublikasida hamda mintaqaning Orol dengizi, Balxash ko'li, Issiqko'l, Irtish daryosi va boshqa shu kabi judda katta suv ob'yektlarida bu hsshat o'zini na moyon qiladi. Markaziy Osiyoda muzliklarni saqlab qolish, mintaqadagi suv resurslaridan maqbul foydalanish — bu dastavval Markaziy Osiyoning xavfsizligi va unga yaqin hududlar ning turg'un rivojlanishini ta'minlaydi.

9. Qosimov N. Suvni muhofazalash va resurslardan oqilona foydalanish//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2013. -№3. -35-b.

ToshDAU tadqiqotchisi suv resurslaridan oqilona foydalanishni ob'yektiv zaruriyatini quyidagilar deb hisoblaydi:

- Suv xo'jaligi tizimida to'liq bozor munosabatlarining qaror topishi;
- turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarining qaror topishi;
- irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarining texnik soz va zamonaviy inshootlarni qurish;
- suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish;
- bozor tamoyillariga asoslangan boshqarishni joriy etish va hakoza.

10. Raximov Sh, Soy E. Tomchilatib sug'orish – tejamkor usul. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2008. –№6. -3-b.

Mazkur maqolada mualliflar Isroil, AQSh, Turkiya, Xitoy, Fransiyada sug'ortish tizimi sifatida keng joriy etilgan tomchilatib sug'orib tizimining O'zbekistonda dastlab o'tgan asrning 70-yillaridan boshlanib foydalanilib kelinayotganligi, mazkur usulning paxta yetishtirish texnologiyasiga joriy etish imkoniyalari va qo'yiladigan talablarga to'xtalib o'tilgan.

11. Rizayev T. Suv iste'molchilari uyushmalarining faoliyatini muvofiqlashtirish muammolari va yechimlari//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2013. -№2. -35-b.

Mazkur maqolada muallif SIU faoliyatini muvofiqlashtirish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun quyidagi omillarga e'tiborni qaratadi:

- SIU bilan foydalanuvchilar o'ratsidagi shartnomalarning to'liq ijrosini ta'minlash;

- SIUlar uchun ajratiladigan mablag'larni to'liq o'zlashtirishga erishish;

- uyushmalarni tajribali iqtisodchi-hisobchi mutaxassislar bilan ta'minlash;

- ular moddiy-texnika bazasini ta'minlash va hakoza.

12. Shoxxo'jayev F. Yer-suv resurslaridan unumli foydalanaylik//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2012. -№1. -34-b.

Mazkur maqolada mualliflar tabiiy resurslar taqchilligi sezilayotgan bir davrda suv resurslaridan samarali foydalanishga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlashadi. Buda eng asosiy omil suv iste'molchilari uyushmalari faoliyatini tubdan yaxshilash kerakligi muhimligini ta'kidlashadi.

13. Umarov U.U., Mirzayev S.Sh. Suv resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish. Ma'ruza matnlari. –T.: O'zMU, 2007.

Ma'ruzalar matni suv xo'jiligi majmuasi, uning qatnashchilari, suv resurslaridan foydalanish va boshqarish tizimi, Orol dengizi hududidagi davlatlarda suv resurslarining paydo bo'lishi, foydalanishi, boshqarilishi va yaqin yillar uchun bashoratlar berilgan.

14. Xudoyberganov Z. Suv resurslaridan samarali foydalanishning iqtisodiy asoslari//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2008. -№2. -25-b.

Muallif o'z maqolasida suv resurslaridan foydalanishning huquqiy asoslari, qabul qilingan hukumat qarorlari, suv resurslariga qilinayotgan sarflar, hududlar bo'yicha bir metr kub suvni yetkazib berish xarajatlari qanchaga tushayotganiga to'xtalib o'tgan.

2. SIU HUDUDIDAGI FERMER XO'JALIKLARI RESURSLARIDAN FOYDALANISH HOLATI

2.1. Yer resurslari va ulardan foydalanish holati tahlili

Resurslar salohiyati deyilganda, fermer xo'jaliklarining yer, mehnat va moddiy-texnika resurslari nazarda tutiladi. Malakaviy bitiruv ishi mavzusi yer resurslari hakida bo'lgani bois, resurslar tahlilini moddiy-texnika resurslari va mehnat resurslari bo'yicha olib boramiz.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning moddiy elementlari orasida yer resurslari muhim o'rinni egallaydi. U moddiy boylik yaratishning dastlabki shart-sharoiti va tabiiy asosi hisoblanadi. Klassik iqtisodchilar, yerni mehnat vositalari, mehnat predmetlari va manzilgoh joylarni yaratuvchi buyuk laboratoriya, xazina ekanligini ta'kidlaganlar.

1.Yer tabiat mahsuli. Inson mehnati tuproq xususiyatini o'zgartiradi, bu uning mehnat predmeti ekanligi. O'simliklarning rivojlanishi va o'sishga ta'sir ko'rsatishi uning mehnat vositasi ekanligi. Ikkalasi birgalikda uning ishlab chiqarish vositasi ekanligini bildiradi.

2.Yerning hududiy chegaralanganligi va uning takror yaratilmasligi. Yer boshqa ishlab chiqarish vositalari kabi insonnig xohishi bilan ko'payib qolavermaydi.

3.Yerni almashtirish mumkin emasligi. Yerni boshqa ishlab chiqarish vositalari kabi almashtirib bo'lmaydi, undan boshqa ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga qarab takomillashganlari bilan almashtiriladi.

4.Yerni siljitib bo'lmasligi. Yer qayerda joylashgan bo'lsa, o'sha yerda undan foydalanish mumkin, uni bir joydan boshqa joyga ko'chirish mumkin emas.

5.Yer uchastkalarining sifati bo'yicha turli tumanligi. Yer uchastkalariga bir xil miqdorda mablag' va mehnat sarflansa ham olinadigan mahsulotlar miqdori turlicha bo'lishi mumkin.

6. Boshqa ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish jarayonida foydalanilganda eskiradi, o'zining foydalilik xususiyatini kamaytiradi va butunlay ishdan chiqadi.

Yer umrbodlik ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi, eskirmaydi, aksincha u yaxshilab parvarish qilinsa, ko'p hosil beradi. Yerning bu xususiyatlari uning umrbodligiga, ya'ni parvarish qilinayotgan o'simlikni zarur ozuqa moddalari bilan qondirish va hosil yetishtirish xususiyatiga bog'liq. Iqtisodchilar tuproq unumdorligini uch turga ajratganlar:

1. Tabiiy

2. Sun'iy

3. Iqtisodiy

Tuproqning unumdorligi - quyosh, shamol, suv kabi tabiiy kuchlarning ta'sirida uzoq davom etgan tuproq hosil bo'lishi jarayonining natijasidir. Tuproqning tabiiy unumdorligi, uning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarini xarakterlaydi, u dehqonchilik uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega, iqtisodiy unumdorlikning asosi hisoblanadi. U insonning mehnat faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda harakat qiladi. Lekin tabiiy unumdorlik yerning potensial sifatinigina xarakterlaydi. Tuproq ozuqa moddalariga boy bo'lganligi bilan, unga ishlov berilmasa, ya'ni inson mehnati ta'sir etmasa, u kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Insonning ishlab chiqarish faoliyati natijasida yaratilgan unumdorlik sun'iy unumdorlik deb ataladi, u ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi va shuning uchun jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida bir xil emas.

O'zbekiston Respublikasining barcha yer resurslari yagona yer fondini tashkil etadi. Ular maqsadli foydalanishiga qarab, O'zbekiston Respublikasi yer kodeksining 2-bobida ko'rsatilganidek quyidagi kategoriyalarga bo'linadi:

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga: davlat jamoa xo'jaligi, ilmiy-tekshirish, o'quv va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari, shuningdek alohida fuqarolar, dehqon xo'jaliklari va kooperativlarning yerlari

kiradi. Bundan tashqari boshqa qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar, ijtimoiy va diniy tashkilotlarga yordamchi qishloq xo'jaligini yuritish uchun berilgan yerlar ham kiradi.

2. Aholi punkti yerlariga shahar, posyolka va boshqalarning yer maydonlari kiradi. Uy-joy fondi, parklar va boshqa madaniy-maishiy ob'yektlarni joylashtirish uchun foydalaniladi.

3.Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa qishloq xo'jaligiga taaluqli bo'lmagan tarmoqlar yerlari. Ular zavodlar, fabrikalar, temir yo'l va avtomobil transporti, aloqa, mudofaa ob'yektlari va boshqalarni joylashtirish uchun foydalaniladi.

4.Tabiatni muhofaza qilish, rekreasiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar-alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo'lgan yerlar, shuningdek ommaviy dam olish va turizm uchun foydalaniladigan yerlar.

5.Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar, tarixiy madaniy yodgorliklar joylashgan yerlar.

6.O'rmon fondi yerlari. O'rmon bilan band yerlar, shuningdek, o'rmon xo'jaligi zaruriyati uchun mo'ljallangan yerlar.

7.Suv fondi yerlari. Suv havzalari, gidrotexnik, suv xo'jalik inshootlari, shuningdek, suv havzalari qirg'oqlari kiradi.

8.Davlat zahira yerlari. Bu yerlar hozircha hych kimga egalik qilishga va uzoq muddatli foydalanishga berilmagan. Ular asosan mamlakatning kam aholi yashaydigan tumanlarida joylashgan va yangi korxonalar tashkil qilish uchun foydalaniladi, vaqtincha foydalanishga ajratiladi.

Yer resurslari holati va ulardan oqilona foydalanish masalalari milliy va global miqyosda dolzarb bo'lib qolmoqda. Ko'rilayotgan choralarga qaramay, yerlarning buzilish jarayoni kuchayib bormoqda va qishloq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqli yerlar resurslari kamayib ketmoqda.

Respublikamizda jami 44,4 mln gektardan oshiqroq yer resurslari bo'lib, ularning 25 mln gektaridan qishloq xo'jaligida foydalanish mumkin.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer resurslari agrar sohada istiqbolli xo'jalik yuritish shakli hisoblangan fermer xo'jaliklari ixtiyoriga berilgan. Mavjud fermer xo'jaliklari, ular ixtiyoridagi yer resurslarini maqbullashtirish borasida olib borilayotgan hukumat siyosati asosida bosqichma-bosqich yiriklashtirilib bormokda.

Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklarida ham yer resurslaridan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida maqbullashtirish ishlari amalga oshirilgan, natijada fermer xo'jaliklari soni 2010-2013 yillarda 108 taga kamaygan (2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval

Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklari soni va yer maydoni tahlili (2010-2013 yy.)*

№	Xo'jaliklar toifalari	2010			2013			2013 yilda 2010 yilga nisbatan o'zgarishi, +/-		
		soni	yer maydoni, ga	o'rtacha yer maydoni, ga	soni	yer maydoni, ga	o'rtacha yer maydoni, ga	soni	yer maydoni, ga	o'rtacha yer maydoni, ga
	fermer xo'jaliklari-jami	577	22430	38,9	469	22430	47,8	-108	0	8,9
1.	paxta-g'allachilik	243	19164	78,9	209	19164	91,7	-34	0	12,8
	salmog'i, %	42,1	85,4	202,9	44,6	85,4	191,7	2,5	0	-11,2
2.	sabzavot-polizchilik	9	66	7,3	9	66	7,3	0	0	0
	salmog'i, %	1,6	0,3	18,9	1,9	0,3	15,3	0,3	0	-3,6
3.	bog' va uzumchilik	221	1692	7,7	169	1692	10	-52	0	2,3
	salmog'i, %	38,3	7,5	19,7	36	7,5	20,9	-2,3	0	1,2
4.	chorvachilik	72	1116,1	15,5	61	1116,1	18,3	-11	0	2,8
	salmog'i, %	12,5	5	39,9	13	5	38,3	0,5	0	-1,6
5.	boshqalar	32	392	12,2	21	391,55	18,6	-11	0	6,4
	salmog'i, %	5,5	1,7	31,5	4,5	1,7	39	-1	0	7,5

*Manba: Oqdaryo tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari. 2010-2013 yillar.

2.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklarida 2010-2013 yillarda yer resurslari miqdori o'zgarmasdan, faqat ular sonida o'zgarishlar kuzatilgan. Foydalanib kelinayotgan yer resurslarining 85,4%i

paxta-g'alla, 0,3%i-sabzavot-polizchilik, 7,5%i bog'-uzumchilik, 5%i chorvachilik, 1,5%i boshqa yo'nalishlarda foydalanib kelinmoqda.

Oqdaryo tumanida mavjud Oqdaryo sharshara Navro'z SIU xizmat ko'rsatadigan yer maydoni haqidagi ma'lumotlar tahlil etildi (2.1.2-jadval).

2.1.2-jadval

Oqdaryo tumani "Oqdaryo sharshara Navro'z" SIU xizmat ko'rsatadigan yer maydoni tahlili (2013)*

№	SIU nomi	SIU xizmat ko'rsatadigan maydon, ga						
		Jami	shundan					
			Paxta	G'alla	Bog' va uzum	Sabzavot va poliz	Tom-orqa	Boshqa ekinlar
1.	Oqdaryo Sharshara Navro'z SIU	28657	8792	9860	3156	1070	3873	1906
	Salmog'i, %	100	30,7	34,4	11	3,7	13,5	6,7

*Manba: Oqdaryo tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari. 2010-2013 yillar.

2.1.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Oqdaryo Sharshara Navro'z SIU jami 28657 ga yer maydoniga xizmat ko'rsatadi. 2013 yilda bu maydonning 8792 ga yoki 30,7%i – paxtachilik, 9860 ga yoki 34,4%i – g'allachilik, 3156 ga yoki 11%i – meva va uzum, 1070 ga yoki 3,7%i – sabzavot va poliz, 3873 ga yoki 13,5%i – tomorqa, 1906 ga yoki 6,7%i – boshqa turdagi yer maydonlari hisoblanadi.

2.2. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish holati tahlili

Fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasi deganda, qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan barcha mehnat vositalari va mehnat buyumlari yig'indisiga tushuniladi. Uning tarkibiga yer resurslari, ishlab chiqarish imoratlari, inshootlari, qishloq xo'jaligi mashinalari va jihozlari, transport vositalari, mahsuldor va ishchi

hayvonlari, ko'p yillik daraxtlar, suv resurslari, urug'lik, chorva ozuqalari, neft mahsulotlari, o'g'it, kimyo vositalari va boshqalar kiradi.

Mehnat predmetlariga ta'sir ko'rsatib, mahsulot ishlab chiqarishda odamlar tomonidan foydalaniladigan hamma buyumlar mehnat vositalari (qurollari) deyiladi. Odam mehnati ishlab chiqarishning qaysi moddiy elementlariga qaratilgan bo'lsa, o'sha moddiy element mehnat predmeti deb ataladi. Fermer va dehqon xo'jaliklari ixtiyorida bo'lgan mana shu ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarish fondlari shaklida namoyon bo'ladi, bularning tarkibiga pulda baholanmagan, ya'ni korxonaning balansi aktivida ko'rsatilmagan tabiiy ishlab chiqarish vositalari kirmaydi. M: yer va suv to'liq baholanmaydi, quyosh issiqligi, shamol va boshqalar mutloq baholanmaydi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari deb, ishlab chiqarish jarayonida bir necha bor ishtirok etib, o'zining tashqi ko'rinishini o'zgartirmaydigan, qiymatini mahsulot tannarxiga asta-sekinlik bilan o'tkazib boruvchi vositalarga aytiladi. Bularga ishlab chiqarish binolari, inshootlar, mashina va asboblari, transport vositalari, xo'jalik va ishlab chiqarish inventarlari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar va boshqa, ya'ni bir yildan ortiq ishlatiladigan vositalar kiradi.

Hozirgi vaqtda amaldagi klassifikasiyaga muvofiq xo'jaliklardagi asosiy ishlab chiqarish fondlari o'zining moddiy (natural) xarakteriga va ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan xizmatiga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi;

1.Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan asosiy ishlab chiqarish fondlari (imorat, inshootlar, o'zatuvchi moslamalar, mashina va qurollar, mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar va boshqalar).

2.Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan ishlab chiqarish fondlari (sanoat ishlab chiqarish vositalari, qurilish vositalari, savdo va umum ovqatlanish vositalari va boshqalar).

Har bir qishloq xo'jalik korxonasining fondlar bilan ta'minlanganligi ishlab chiqarishning to'g'ri va soz olib borilishi garovidir.

Shu bois, biz ham tadqiqotimiz ob'yekti bo'lgan Oqdaryo tumani "Oqdaryo sharshara Navro'z" SIU moddiy-texnika resurslari o'zgarishini ma'lumotlari asosida tahlil etildi (2.1.2-jadval va 2.1.3-jadval).

2.1.2-jadval

Oqdaryo tumani "Oqdaryo sharshara Navro'z" SIU ixtiyorida mavjud inventarlar tahlili (2013)*

№	SIU nomi	Ish joyi bilan ta'minlanganligi	Ta'mir-talab bino soni	Orgtexnika bilan ta'minlanganligi			Mebellar soni			
				kompyuter		printer	stol	stul		shkaf
				soni	sh.j nosoz	soni	soni	soni	sh.j nosoz	soni
1	Oqdaryo Sharshara Navruz SIU	ijara	1	2	1	1	7	18	2	1
	Jami:		1	2	1	1	7	18	2	1

*Manba: Oqdaryo tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari. 2013 yil.

2.1.2-jadval

Oqdaryo tumani "Oqdaryo sharshara Navro'z" SIU ixtiyorida mavjud asosiy vositalar tahlili (2013)

№	SIU nomi	Traktor			Sug'orish tarmoqlari uzunligi, km			SIU hisobidagi suv olish joylari soni	Suv ajratish nuqtalarini jihozlanishi		SIU hisobidagi jami mol mulk qiymati, mln.so'm
		soni	shundan		jami	shundan			suvni boshqarish inshootlari bilan, dona	gidropostlar bilan, dona	
			ta'mirtalab	tiklab bo'lmaydi		yer ariq	beton ariq				
1	Oqdaryo Sharshara Navruz	2	2	2	939	935	4	432	160	200	51,9
	Jami:	2	2	2	939	935	4	432	160	200	51,9

*Manba: Oqdaryo tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari. 2013 yil.

2.1.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "Oqdaryo Sharshara Navro'z" SIU inventarlari tahlili SIU ijaradagi binodan foydalanib kelayotganligi, uning ixtiyorida 1 ta ta'mirtalab bino, 2 ta kompyuter, sh.j.: 1 ta nosoz, 7 ta stol, 18 ta

stul va 1 ta shkaf borligi, uning moddiy-texnika bazasidagi inventarlar juda achinarli holatdiligini ko'rsatadi.

Oqdaryo Sharshara Navruz suv iste'molchilari uyushmasi tarkibidagi moddiy texnika bazasi tarkibida mavjud asosiy vositalar tadqiqotlarimiz davomida tahlil etildi (2.1.3-jadval).

Oqdaryo Sharshara Navruz suv iste'molchilari uyushmasi ixtiyorida 2 ta traktor mavjud bo'lib, ular tiklab bo'lmas holatda nosoz, uyushma jami asosiy vositalarining qiymati 51,9 mln so'mni tashkil etadi.

2.3. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish holati tahlili

O'zbekiston Respublikasi «Mehnat Kodeksi»ning 1-bob 8-moddasida mehnatning ulug'vorligi to'g'risida shunday deyilgan: «Har bir shaxsning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlanadi, bu himoya mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini tekshiruvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek mehnat nizolarini ko'ruvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi». Mehnat – bu insoning maqsadli faoliyati bo'lib, bu jarayonda u tabiat predmetlarini o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtiradi va o'zgartiradi. O'z kuchini qo'shgani holda inson, mehnat qurollaridan foydalanib, tabiat bergan materiallarni, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan moddiy ne'matlarga, boyliklarga aylantiradi. Mehnat jarayoni, insoning ish joyida, uning mehnat faoliyatining ma'lum natijalariga erishishga yo'naltirilgan harakatlarning to'plamini bildiradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligi mehnat resurslarining miqdoriga, tarkibiga, malakasiga va ulardan foydalanish samaradorligiga bog'liq. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslariga mehnatga yaroqli erkaklar -16 dan 60 yoshgacha, ayollar -16 dan 54 yoshgacha, shuningdek qishloq joyda yashovchi o'smirlar va nafaqaxo'rlar kiradi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida mehnat resurslari tarkibiga

1. Doimiy;
2. Mavsumiy;

3. Vaqtinchalik ishchilar, shuningdek, shtatda turuvchi;
4. O'smirlar;
5. Nafaqaxo'rlar kiradilar.

Shu jumladan:

1. Doimiy ishchilarga - muddatsiz ishga qabul qilinganlar;
2. Mavsumiy ishchilar - 6 oygacha muddatga qabul qilinganlar;
3. Vaqtinchalik ishchilarga - 2 oygacha muddatga qabul qilinganlar kiritiladi.

Olingan nazariy xulosalarni to'ldirish maqsadida Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklarida mehnat resurslari va ularning manbalari bilan tanishib chiqamiz.

Oqdaryo tumani joylashuv jihatidan qulay iqtisodiy-jo'g'rofiy hududda joylashganligi sabab, doimiy o'sib boruvchi mehnat resurslari manbalariga ega. Ma'lumotlar asosida fermer xo'jaliklarida mehnat resurslarini tahlil qilamiz (2.3.1-jadval).

2.3.1-jadval

Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklari mehnat resurslari tahlili (kishi)*

№	Ko'rsatkichlar	Yillar				2013 yilda 2010 yilga nisbatan o'zgarish	
		2010	2011	2012	2013	+/-	%
1.	Fermer xo'jaliklari a'zolari	10720	11020	12097	12284	1564	114,6
2.	Doimiy ishchilar	9541	9808	10766	10933	1392	114,6
-	salmog'i, %	89	89	87,6	89	0	x
3.	Yollanma ishchilar	1179	1212	1331	1351	172	114,6
-	salmog'i, %	11	11	10,8	11	0	x
4.	Rahbar xodimlar	633	633	760	760	127	120
-	salmog'i, %	5,9	5,7	6,2	6,2	0,3	x
5.	O'rtacha 1 xo'jalik a'zosi	23	23	21	22	-1	95,5

*Manba: Oqdaryo tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari. 2010-2013 yillar.

2.3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklarida xodimlar soni 2013 yilda 12284 kishi bo'lib, 2010 yilga nisbatan 1564 kishi yoki 14,6%ga oshgan. Bu o'zgarish xo'jaliklarda doimiy ishlovchilar soni 1392 kishi ko'payib, yollanma ishlovchilar sonining 172 kishiga ko'payishi tufayli yuz bergan. Bundan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaliklari ko'proq doimiy

ishchilar mehnatidan foydalanishga e'tibor qaratishgan. Fermer xo'jaliklarida o'rtacha xodim soni 23 kishidan 22 kishiga qisqargan.

Bu raqamlar qishloq xo'jaligidagi mavjud ortiqcha mehnat resurslarining boshqa sohalarga ko'chirilayotganligini bildiradi.


2.3.2-jadval

Oqdaryo tumani Oqdaryo sharshara Navro'z SIU xodimlari tarkibi tahlili (2013)*

№	SIU nomi	Jami xizmat ko'rsatish maydoni, ming.ga	SIU da ishlaydigan kadrlar soni						O'rtacha 1 ta mirobga to'g'ri keladigan SIU maydoni, ga
			jami	shundan					
				boshliq	bosh gidro- texnik	hisobchi	mirob	mexni- zator	
1	Oqdaryo Sharshara Navro'z	28657	36	1	2	1	27	5	1061
	Jami:	28657	36	1	2	1	27	5	1061

*Manba: Oqdaryo tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari. 2013 yil.


2.3.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Oqdaryo tumani Oqdaryo sharshara Navro'z SIU xodimlari tarkibitahlili shuni ko'rsatdiki, uyushmada jami 36 kishi mehnat qilib, ulardan 1 kishi boshliq, 1 hisobchi, 27 mirob mavjud.



1-rasm. Oqdaryo tumani Oqdaryo sharshara Navro'z SIU xodimlari yosh tarkibi bo'yicha tahlili (2013)

*Manba: Oqdaryo tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari. 2013 yil.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Oqdaryo tumani Oqdaryo sharshara Navro'z SIU xodimlarining yosh tarkibi tahlili xodimlardan 19 kishining 60 yoshgacha, 10 kishi 50 yoshgacha, 6 kishi 40 yoshgacha va 1 kishi 30 yoshgacha xodimlar ekanligini ko'rsatdi.



2-rasm. Oqdaryo tumani Oqdaryo sharshara Navro'z SIU xodimlari ma'lumoti bo'yicha tahlili (2013)

*Manba: Oqdaryo tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari. 2013 yil.

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Oqdaryo tumani Oqdaryo sharshara Navro'z SIU xodimlarining ma'lumoti tahlili xodimlardan bor yo'g'i 6 kishininggina oliy ma'lumotli ekanligi, 21 kishi o'rta maxsus va 9 kishi o'rta ma'lumotli ekanligini ko'rsatdi.

3. SUV ISTE'MOLCHILARI UYUSHMASI SAMARADORLIGI TUSHUNCHASI, MEZONI VA BOSHQARUVI

3.1. Suv iste'molchilari uyushmasi, uning ahamiyati va boshqaruvi

Suv iste'molchilar uyushmasi (SIU) bir yoki undan ortiq kanal atrofidagi suv iste'molchilarning xohish irodasi bilan tuziladigan va ular tomonidan boshqariladigan notijorat tashkilotdir.

Suv iste'molchilar uyushmasi muayyan miqdorda suv olish, undan foydalanish va oqavaga chiqarish bilan bog'liq xo'jalik faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshiruvchi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari va boshqa yuridik jismoniy shaxslar birlashmasidir (uyushmasi) (Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 yanvardagi 8-sonli qarorining 7-ilovasidan).

Suv iste'molchilari - fermer, dehqon xo'jaliklari, tomorqaegalari vaboshqalarbo'lib, adolatli suvtaqsimoti hamda irrigatsiya-meliorasiya tarmoqlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish orqali uyushma hududida sug'orma dehqonchilikni rivojlantiradilar va buning uchun o'zlarining moliyaviy va texnik imkoniyatlarini birlashtiradilar.

Suv iste'molchilari – cheklangan miqdordagi suvni olish, undan va ichki suv xo'jaligi ob'yektlaridan foydalanish bilan bog'liq xo'jalik hamda boshqa faoliyatlarni amalga oshiruvchi fermer va dehqon xo'jaliklari hamda boshqa yuridik vajismoniy shaxslardir (VazirlarMahkamasining 2002 yil 5 yanvardagi 8-sonli qaroridan).

Uyushma hududidagi suv iste'molchilari SIUsiz quyidagi muammolarga duch kelishlari mumkin:

- yagona teng huquqli suv taqsimlash tizimi yo'lga qo'yilmaganligi bois suv iste'molchilari o'rtasida suv uchun uzluksiz ziddiyatlar vujudga keladi;

- irrigatsiya-meliorasiya tarmoqlarining uzluksiz ishlashini ta'minlashda davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'larning yetishmasligi tufayli ularning holati yomonlashib boradi;

-suv resurslaridan oqilona va maqsadli foydalanmaslik ularning keskin kamayish havfini keltirib chiqaradi va kelajakda Orolbo'yi hududida yuz bergan favqulodda ekologik vaziyat yanada og'irlashadi.

SIU o'z a'zolari bo'lgan suv iste'molchilariga sug'orish tarmog'idagi suvni taqsimlash va uyushmani demokratik asosda boshqarishda faol qatnashish imkoniyatini beradi. Suv iste'molchilari SIUning moliyaviy boshqaruvini oshkora tashkil etishlari uyushma faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Bu qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini birlashtirgan holda nafaqat suv xo'jaligi, balki qishloq xo'jaligi bilan bog'liq umumiy muammolarni hal qilishda ham yordamberadi. Bundan tashqari suvdan samarali foydalanish hisobiga qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligining oshishi fermerda ertangi kunga yanada ishonch uyg'otadi.

SIU a'zosi uyushma faoliyat ko'rsatadigan hududda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxslardir.

SIU a'zolarining huquq va majburiyatlari uyushma ustavi va uning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi boshqa ichki hujjatlarda ko'zda tutilgan.

SIU a'zolarining huquqlari:

- SIU boshqaruv organiga nomzodlar tavsiya qilish yoki o'z nomzodlarini qo'yish;

- Suv iste'moli rejasiga muvofiq sug'orish suvidan adolatli va teng huquqli foydalanish hamda qo'shimcha suv resurslari mavjud bo'lsa, birinchi navbatda olish;

- o'z manfaatlari bilan bog'liq masalalar muhokamasida ishtirok etish;

- shartnoma majburiyatlarini bajarmagan va ustavga rioya qilmagan hollarda SIUdan da'vo talab qilish;

- suv iste'molchilari o'z qiziqishi va umumiy manfaatidan kelib chiqib, SIU faoliyatiga oid ma'lumotlar bilan tanishish.

SIU a'zolarining majburiyatlari:

- ustav qoidalariga va uyushma tomonidan qabul qilingan barcha me'yoriy hujjatlarga rioya qilish;

- belgilangan badallarni hamda uyushma xizmatlari haqini o'z vaqtidato'lash;
- sug'orish rejimiga rioya qilish hamda har bir suvdan foydalanuvchi bilan kelishilgan holda belgilangan limitdagi suvni olish;

- uyushmani tasarrufidagi yer va foydalanilgan suv bilan bog'liq ma'lumotlarbilan ta'minlash;

- SIUga qarashli irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarini asrab-avaylash.

Ustav va barcha ichki me'yoriy hujjatlarga amal qilmagan a'zolarga nisbatan jazo choralarini qo'llash SIU ustavida ko'zdatutiladi.

Uyushma a'zolarining bevosita o'zlari yoki ularning vakillari SIU faoliyatini demokratik tamoyillar asosida boshqaradilar. Bu quyidagi tuzilmada aks ettirilgan:

1. Umumiy yig'ilish SIUning oliy boshqaruv organidir. Unda barcha a'zolar yoki suvdan foydalanuvchilar guruhlar vakillari qatnashadi va ularning har biri bir ovozga ega. Umumiy yig'ilishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- SIU ustavi va uning faoliyati bilan bog'liq ichki me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash;

- SIU kengashi va taftish komissiyasi a'zolarini saylash yoki vazifasidan ozod etish;

- Boshqaruv tuzilmasi, yollanma ishchi-xizmatchilar soni, ularning ish haqi miqdori va uni berish tartibini tasdiqlash;

- uyushma a'zolari va a'zo bo'lmaganlarning badal to'lovlari miqdorini belgilash;

- uyushmaga a'zo bo'lmaganlar bilan tuziladigan shartnoma qiymatini belgilash;

- uyushmaning istiqbolli rejalari va byudjeti, ularning hisobotlarini tasdiqlash;

- SIUning yillik ishrejasi va sug'orish jadvalini tasdiqlash;

- ustav tartiblari va ichki me'yoriy hujjatlar qoidalarini buzilgan hollardajazolarini ta'minlash;

- SIU kengashi va taftish komissiyasi hisobotlari bilan tanishish va tegishli qarorlar qabul qilish;

- SIU boshqa tashkilotlarga birlashgan holatda uning maqomini belgilash.

2. SIU kengashi a'zolari jamoatchilik asosida (ish haqisiz) faoliyat yuritadi va har oyda kamida bir marta yig'iladi. Kengash vakolatiga quyidagilar kiradi:

- kengash tarkibidan uyushma kengashi raisini saylash;
- umumiy yig'ilish kuntartibini tayyorlash va chaqiriq muddatini belgilash;
- yillik hisobotni tayyorlash va uni umumiy yig'ilish a'zolari yoki SIU vakillariga taqdim etish;
- SIU ustaviga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish va umumiy yig'ilishga tasdiqlash uchun taqdim etish;
- umumiy yig'ilish qabul qilgan ustav, qaror, shartnomalarning bajarilishi, hamda suv resurslaridan foydalanish va uni muhofaza qilishni qonun talabi doirasida nazorat qilish;
- byudjet, yillik reja va ish rejasiga muvofiq keluvchi shartno-malarning bajarilishini nazorat qilish;
- ijroiya organi faoliyatini nazorat qilish;
- uyushma a'zolari o'rtasidagi nizo va kelishmovchiliklarni hal qilish, ularning uyushmaga nisbatan da'volarini ko'rib chiqish;
- ustav va shartnomaga amal qilmaganlarga nisbatan tegishli choralar ko'rish;
- kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda umumiy yig'ilish vakolatidagi qarorlarni qabul qilish vanavbatdagiumumiy yig'ilishda tasdiqlash;
- uyushmaga qabul qilish yoki a'zolikdan chetlatish arizalarini o'rganib, tegishli qaror qabul qilish.

SIU kengashi raisi kengash a'zolari tomonidan ma'lum muddatga saylanadi va nomzod umumiy yig'ilish a'zolari bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Uning majburiyatiga quyidagilar kiradi:

- SIU a'zolari yoki vakillarning umumiy yig'ilishlari hamda kengash majlislarinio'tkazadi;
- SIU faoliyati bilan bog'liq barcha masalalarda uyushma vakili sifatida qatnashadi;
- SIU ustavida belgilab berilgan boshqa majburiyatlarni bajaradi.

3. Taftish komissiyasi uyushmaning moliyaviy va xo'jalik faoliyatini nazorat qiladi hamda umumiy yig'ilishga hisobot beradi. Uyushma faoliyatida jiddiy moliyaviy kamchiliklar aniqlansa, komissiya kengashdan navbatdan tashqari umumiy yig'ilish chaqirtirishni talab etish huquqiga ega.

Taftish komissiyasi vazifalariga quyidagilar kiradi:


- umumiy yig'ilish tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni bajarish;
- uyushmaning moliyaviy faoliyatini nazorat qilish;
- hisob-raqamlari, aktivlar va jihozlarni kamida bir yilda bir marta umumiy yig'ilish yoki suv iste'molchilari guruhi vakillarining qarori asosida tahlil qilish va tekshirish;
- audit nazorati bo'yicha olib borilgan tekshiruvlar natijasi hisobotini umumiy yig'ilish va kengashga taqdim etish.

4. Ijroiya organi SIUning xo'jalik faoliyatini amalga oshiradi. U boshqaruvchi, hisobchi vatexnik xodimlardan iboratdir. Bu mehnatiga haq to'lanadigan yagona organ bo'lib, ularning vakolat muddatlari mehnat shartnomasida belgilab beriladi. Ijroiya organining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- SIU a'zolari hamda a'zo bo'lmagan shaxslar bilan suv xo'jaligi xizmati ko'rsatish yuzasidan shartnomalar tuzish;
- irrigatsiya-meliorasiya tarmoqlarini ishchi holatda saqlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish;
- umumiy yig'ilish va kengash qabul qilgan qarorlarni bajarish.

Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 21 iyuldagi «Suv resurslarini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan respublikamizda irrigatsiya tizimlarini boshqarish ma'muriy-hududiy prinsiplardan havza prinsiplariga o'tish jarayoni huquqiy asosida belgilab berildi.

Respublikamizda suv resurslarini boshqarishning amaldagi tartibiga muvofiq eng yuqori organ Qishloq va suv xo'jaligi vazirligidir (3-rasm).




3-rasm. Respublikada suv resurslarini boshqarishning amaldagi tartibi

Manba: Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari

2003 yil 12 iyuldagi 320-sonli «Suv xo'jaligini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish to'grisida»gi Vazirlar Mahkamasi qarorida O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligining suv xo'jaligi bosh boshqarmasi to'g'risidagi Nizom, Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va Magistral kanallar boshqarmasi to'g'risidagi Namunaviy Nizomlar tasdiqlanadi.

Respublika Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi 2003 yil 28 iyulda 121-buyruq qabul qilgan bo'lib, havzalar bo'yicha Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari va ularning tarkibiy tizimlari tuzib chiqildi (4-rasm).



4-rasm. Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tuzilmasi

Manba: Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi hisobot ma'lumotlari

Zarafshon Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi quyidagi tarkibiy tizimlardan iborat etib tashkil qilindi (3.1.1-jadval).

3.1.1-jadval

«Zarafshon» Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining tarkibiy tuzilishi

№	Nomi	Ma'muriy joylashuvi
1.	«Zarafshon» magistral tizimi boshqarmasi	Samarqand shahri
2.	«Tuyatortor kanali» Irrigatsiya tizimi boshqarmasi	G'allaorol tumani
3.	«Mirza-Pay» Irrigatsiya tizimi boshqarmasi	Jomboy shahri
4.	«Darg'om» Irrigatsiya tizimi boshqarmasi	Samarqand shahri
5.	«Eski Anhor» Irrigatsiya tizimi boshqarmasi	Chiroqchi tumani
6.	«Oq- qoradaryo» Irrigatsiya tizimi boshqarmasi	Loyish shahri
7.	«Miyonqol-Toss» Irrigatsiya tizimi boshqarmasi	Kattaqo'rg'on tumani
8.	«Karmana-Konimex» Irrigatsiya tizimi boshqarmasi	Karmana shahri
9.	«Narpay-Navoiy» Irrigatsiya tizimi boshqarmasi	Narpay tumani

Manba: Zarafshon Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma'lumotlari

Zarafshon Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Zarafshon vodiysi suv xo'jaligidan foydalanish boshqarmasi, Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlari va suv xo'jaligi boshqarmalari negizida tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan Zarafshon Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi hududiy joylashuvi va sug'oriladigan suv maydonlari xajmi bo'yicha Respublikada tashkil etilgan havza boshqarmalari o'rtasida 2-o'rinda turadi.

Boshqarmaning asosiy vazifasi Zarafshon daryosi suv resurslarini shu suv resurslari bilan ta'minlanishi ko'zda tutilgan.

Iste'molchilar o'rtasida to'g'ri taqsimlab, birlamchi suv iste'molchilari chegarasigacha yetkazib berishdan iboratdir.

Boshqarma tarkibidagi birinchi magistral va 8 ta Irrigatsiya tizimining vazifalari va xizmat ko'rsatish hududlari quyidagicha belgilab berilgan:

- ◆ «Zarafshon magistral tizimi» tizim asosan Zarafshon daryosi suv resurslarini tranzit holda o'tkazish va talabnomalar asosida Irrigatsiya tizimlari hisobida bo'lgan kanallarga yetkazib berish va viloyat hududidagi 8 ta suv omborini ishlatishdan iborat;

- ◆ «Tuyatortar kanali» Irrigatsiya tizimi – tizim asosan Jizzax viloyatining Baxmal, G'allaorol va Jizzax tumanlarining 370 ming gektar sug'oriladigan maydonlariga xizmat ko'rsatadi;

- ◆ «Mirza-Pay» Irrigatsiya tizimi – tizim asosan Samarqand viloyatining Bulung'ur, Jomboy va Poyariq tumanlaridagi 92511 gektar sug'oriladigan yer maydonlariga xizmat ko'rsatadi;

- ◆ «Darg'om» Irrigatsiya tizimi- tizim asosan Samarqand viloyatining Urgut, Toyloq, Samarqand, Pastdarg'om, Nurobod, Kattaqo'g'on tumanlari va Samarqand shahrining 122237 gektar sug'oriladigan yer maydonlariga xizmat ko'rsatadi;

- ◆ «Eski Anxor» Irrigatsiya tizimi boshqarmasi – tizim Samarqand viloyatining Pastdarg'om, Nurobod, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi, Qamashi va Shahrisabz tumanlarining 47 ming gektar sug'oriladigan yer maydonlariga xizmat ko'rsatadi;


♦ «Oq-qoradaryo»Irrigatsiya tizimi boshqarmasi – tizim asosan Samarqand viloyatining Oqdaryo, Jomboy, Oqdaryo, Oqdaryo, Samarqand va Qo’shrobod tumanlarining 70034 gektar sug’oriladigan yer maydonlariga xizmat ko’rsatadi;

♦ «Miyonqol-Tos » Irrigatsiya tizimi boshqarmasi-tizim asosan Navoiy viloyatining Xatirchi, Samarqand viloyati Oqdaryo va Kattaqo’rg’on tumanlarining 67638 gektar sug’oriladigan yer maydonlariga xizmat kursatadi:

♦ «Karmana-Konimex» Irrigatsiya tizimi boshqarmasi- tizim asosan Navoiy viloyatining Xatirchi, Navbahor, Konimex, Qiziltepa va Navoiy tumanlarning 47961 gektar sug’oriladigan yer maydonlariga xizmat ko’rsatadi;

♦ «Narpay-Navoiy» Irrigatsiya tizimi boshqarmasi- tizim asosan Samarqad viloyatining Narpay, Paxtachi, Nurobod, Kattaqurg’on va Navoiy viloyatining Navoiy tumanlarining 60810 gektar sug’oriladigan yer maydonlariga xizmat ko’rsatadi.

Irrigatsiya tizimlarining tarkibida faoliyat olib boruvchi asosiy korxonalar SIUlar hisoblanadi (5-rasm).



5-rasm. Oqdaryo tumani Oqdaryo sharshara Navro’z SIU xodimlarining tashkiliy tuzilmasi

Manba: Oqdaryo tumani SIU hisobot ma’lumotlari

Har bir korxonani boshqarish natijasi uning samaradorlik ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi.

Oqdaryo tumani "Oqdaryo sharshara Navro'z" SIU faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan tanishdik (3.1.2-jadval).

3.1.2-jadval

"Oqdaryo sharshara Navro'z" SIUda iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili (2010-2013 yy.)*

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar				2013 yil 2010 yilga nisbatan o'zgarish	
			2010	2011	2012	2013	+/-	%
1.	Suv yetkaziladigan maydon	ga	28657	28657	28657	28657	0	100
2.	Yetkazib beriladigan suv miqdori	mln m ³	276	384	406	420	144	152,2
3.	Jami xarajatlar	mln so'm	201,3	210,4	220,8	245,5	44,2	122
4.	Jami undirilgan mablag'	mln so'm	201,3	210,4	220,8	147	-54,3	7
-	davlat bdyujetidan	mln so'm	42,7	49,2	50,1	35,4	-7,3	83
	salmog'i	%	21,2	23,4	22,7	24,1	2,9	x
-	fermer xo'jaliklari to'lovidan	mln so'm	141	151,2	160,9	106,1	-34,9	75,2
	salmog'i	%	70,1	71,9	72,9	72,2	2,1	x
-	Boshqa manbalardan	mln so'm	17,6	10	9,7	5,5	-12,1	31,1
	Salmog'i	%	8,7	4,7	4,4	3,7	-5	x
5.	Qoplanish (+), zarar (-) darajasi	%	100	100	100	59,9	-40,1	x

*Manba: Oqdaryo tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari. 2010-2013 yillar.

3.1.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Oqdaryo tumani SIU 469 fermer xo'jaligiga taalluqli 28657 ga sug'oriladigan yeriga 2013 yil mobaynida 420 mln m³ suv yetkazib bergan. SIU tomonidan 2010-2013 yillar davomida 276-420 mln m³ suv resurslari yetkazib berilib, o'rganilgan davr mobaynida suv ta'minoti 144 mln m³ ga yoki 52,2%ga oshgan.

Yetkazib berilgan suv miqdoriga jami 2010 yilda 201,3 mln so'm, 2011 yilda 210,4 mln so'm, 2012 yilda 220,8 mln so'm sarflar qilinib, 2013 yilda 245,5 mln so'm sarflangan. Undirilgan mablag' 2010-2012 yillarda 100% ni tashkilo etgan bo'lsa, 2013 yilda undirilgan mablag' 59,9%ni yoki 147 mln so'mni tashkil etgan. Undirilgan mablag'ning 70,1-72,2%i fermer xo'jaliklaridan undirilgan bo'lsa, boshqa manbalardan qoplanishi 8,7-3,7% boshqa manbalardan qoplangan.

3.2. Suv iste'molchilari uyushmasi faoliyati boshqarishning huquqiy asoslari

Huquqiy asos bu qonunchilik tizimining asosiy va ajralmastuzilmasibo'lib, parlamenttomonidan qabul qilin-gan qonun va qarorlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlaridan iborat bo'lgan turli qonuniy hujjatlar to'plamidir. Bu qonuniy hujjatlarning maqomi va ustunligi har bir mamlakatda turlichadir. Shuningdek hukumat, vazirliklar va mahalliy hokimiyatlar tomonidan qabul qilingan qonuniy hujjatlarning jamiyat a qan ay kuchgaegaligi ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, dunyo tajribasida SIUlar faoliyatini tartibga solib turuvchi huquqiy asosni ikki qismga ajratib o'rganish mumkin:

1. SIU to'g'risidagi odatda mamlakat huquqiy normativ hujjatlarining tarkibiy qismi bo'lib, SIU larni tashkil etish va boshqarishni to'g'ridan to'g'ri tartibga solib turuvchi asosiy huquqiy hujjatdir. Jahon tajribasidan ma'lumki, SIU to'g'risida alohida qonun qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

2. SIU tashkil etish va faoliyat ko'rsatishiga asos bo'luvchi qonunlar (O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi (77-moddasi) hamda "Nodavlat va notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun asos bo'lishi mumkin). Amaliyotda bu huquqiy normativ hujjatlar nazariy nuqtainazardan mamlakatning bir necha qonuniy hujjatlaridan iborat bo'lishi mumkin.

3. Masalan, SIU yollanma ishchi kuchidan foydalanadigan bo'lsa, bu jarayon mamlakatning Mehnat Kodeksi va qandaydir bir uskuna sotib oladigan bo'lsa, bu munosabatlar shartnomalar bilan bog'liq huquqiy hujjatlar tomonidan tartibga solinadi. Shuningdek, SIUga qarashli yoki u tomonidan foydalaniladigan infratuzilmalarga zarar yetkaziladigan bo'lsa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksda bunga nisbatan tegishli choralar qo'llash belgilangan. SIU to'laydigan soliqlar esa Soliq kodeksi tomonidan tartibga solinadi.

SIU faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asosning maqsadi:

- SIUning maqsad va vazifalari;

- SIU va boshqa tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlari;
- SIUning ichki tartib qoidalari;
- SIU tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq munosabatlarni belgilab berish va tartibga solish.

Asosiy qonuniy hujjatlarda SIU tuzish va faoliyatini amalga oshirish alohida qayd etilmagan bo'lsada, lekin quyidagi qonun va qonunosti hujjatlar orqali tartibga solinishi mumkin:

- "Fuqarolik kodeksi"ning 77-moddasi: Tijorat tashkilotlari o'zlariningtadbirkorlik faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek mushtarak mulkiy manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida notijorat tashkilotlar hisoblanuvchi uyushmalar va o'zga birlashmalariga birlashishlari mumkin;

- "Suv va suvdan foydalanish to'risida"gi Qonun (1993 yil 6may) suvdan foydalanish huquqini beradi, sug'orish va zovur tarmoqlaridan foydalanish, ularni ishchi holatda saqlash, shuningdek suv uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni yechish bilan bog'liq moddalarni o'z ichiga oladi;

- Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 yanvardagi 8-sonli qarorining 7-ilovasi suvdan foydalanuvchilar kimlar va kimlar SIU a'zosi bo'la olishiga aniqlik kiritadi. fermer va dehqon xo'jaliklari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar kiradi. Suv iste'molchilari uyushmasi muayyan miqdorda suv olish, undan foydalanish va oqavaga chiqarish bilan bog'liq xo'jalik faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshiruvchi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari va boshqa yuridik, jismoniy shaxslar birlashmasi (uyushmasi) hisoblanadi.

- Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida cheklangan suv resurslaridan foydalanish to'g'risida" gi qarori suv taqchil bo'lgan mavsumda suv taqsimlashtartib qoidalarini belgilab beradi.

SIU ustav tashkil etish, uyushma va a'zolarining huquq-majburiyatlari hamda uning tashkiliy tuzilmasini belgilab beruvchi ichki tartib-qoidalar to'shamidir. Amaliyotda ustav tartib qoidalarining asosiy tarkibi SIUlar tuzishga asos bo'luvchi qonun hujjatlarida ko'rsatilgan bo'ladi.

Ustav tayyorlash va tasdiqlash jarayonida barcha SIU a'zolari faol ishtirok etishlari maqsadga muvofiq. Chunki u har bir suvdan foydalanuvchining manfaatini o'zida aks ettirishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan namunaviy ustav tavsiya etilgan. Biroq har bir SIU tavsiya etilgan ustav asosida o'z ustavini ishlab chiqishi lozim.

Odatda ustavda quyidagilar batafsil bayon qilinadi:

- SIU a'zolari qabul qilgan qarorlarga so'zsiz rioya qilish;
- suvga talabnoma berish tartibi;
- nizolarni hal qilish tartibi;
- SIU tartib-qoidalarini buzganlarga jarima solish;
- Irrigatsiya xizmati badalini hisoblash usullari.

Ustavni tasdiqlash jarayonida SIUning barcha a'zolari to'liq qatnashishlari maqsadga muvofiq. Ekin maydonining katta-kichikligidan qat'iy nazar SIUning har bir a'zosi odatda bir ovozga ega bo'ladi.

SIUlar tomonidan yetkazib beriladigan suv resurslarining iqtisodiy samaradorligi doimo tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelgan. Shu sababdan Oqdaryo tumani "Oqdaryo sharshara Navro'z" SIUda fermer xo'jaliklariga yetkazib berilayotgan suv resursining iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan tanishib chikdik (3.2.1-jadval).

3.2.1-jadval

Oqdaryo tumani "Oqdaryo sharshara Navro'z" SIUda suv bilan ta'minlashning iqtisodiy ko'rsatkichlari (2013 y.)*

Ko'rsat- kichlar	Sug'ori- ladigan maydon, ga	Olingan o'rtacha hosil- dorlik, s/ga	Jami sug'orish ishlariga olingan suv miqdori, ming m ³	1 kompleks gektarga berilgan suv, m ³ /ga	1 s hosil uchun suv sarfi, m ³	Jami yetkazib berish xara- jatlari, mln so'm	1 m ³ suvni yetkazib berish xarajatlari, so'm	1 s hosil uchun sarflangan suv xara- jatlari, so'm
SIU bo'yicha	28657	x	420	14656,1	x	245,5	1,71	x
Sh.j.								
- paxta	8792	23,4	86,5	9840,8	421,2	147,9	1,71	720,3
- g'alla	9660	65,4	51	5282,6	80,8	87,3	1,71	138,2

*Manba: Oqdaryo tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari. 2013 y.

3.2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Oqdaryo tumani SIUda jami 28657 ga yer maydoniga resursi yetkazib berilib, suv yetkazib berish sarflari 245,5 mln so'msarflangan, sh.j.: suv resurslari yetkazib berish xarajatlari paxtachilikda 147,9 mln so'm va g'allachilikda 87,3 mln so'mni tashkil etgan. 1 ga yerga paxtachilikda 9840,8 m³ va g'allachilikda 5282,6 m³ suv resurslari yetkazilib berilib, 1 s hosil uchun paxtachilikda 720,3 so'm, g'allachilikda 138,2 so'm suv uchun sarflar qilingan. 1 m³ suvni yetkazib berish xarajatlari o'rtacha – 1,71 so'mni tashkil etib, bu raqam viloyat miqyosidagi o'rtacha sarflardan qariyb 10 baravar arzon bo'lib, bunga tumanda nasos orqali sug'orishning yo'qligi sabab bo'lgan.

3.3. Suv resurslaridan foydalanish samaradorligining hozirgi holati tahlili

Suv qishloq xo'jaligida xuddi yer kabi zarur bo'lgan tabiiy resurs hisoblanadi. Suv resurslari butun mintaq, mamlakat, xavza bo'yicha boshqariladi va undan foydalaniladi. Shu bois, suv resurslarining mintaqalar bo'yicha taqsimlanganligi guvohi bo'lishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda qabul qilingan «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunida suvning davlat mulki ekanligi, umumiy boylik hisoblanilishi, suvdan oqilona foydalanish lozimligi va u davlat tomonidan qo'riqlanishi ta'kidlab o'tilgan. Yana shu qonunda respublikaning yagona davlat suv fondi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, boshqa yer usti suv havzalari va suv manbalari, kanal va hovuzlarning suvlaridan, yer osti suvlari va muzliklardan iboratligi ko'rsatib o'tilgan. Mamlakatimizga qardosh Qirg'iziston va Tojikiston respublikalaridan Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshon kabi daryolar oqib keladi. Ulardan, Orol dengizi va Haydarko'l kabi ko'l suvlaridan foydalanish huquqi davlatlararo bitimlarda belgilab beriladi.

Shunday qilib, suvning ahamiyatini va uni tejash kerakligini quyidagi ma'lumotlar bilan tasdiqlash mumkin. Agarda tuproq tarkibidagi namlik 65-80 foiz bo'lsa, yerdan hosil olish mumkinligi ilmiy tadqiqotlar natijasidan ma'lum.

Qishloq xo'jaligida turli ekinlarning suvga bo'lgan talabi turlicha hisoblanadi. Bu talab o'simliklarning xususiyatlaridan, rivojlanish boskichlaridan kelib chikadi.

Masalan, 1 s g'alla (bug'doy, roj, arpa, tariq)ni olish uchun 30-40 tonna, kartoshka uchun – 18-20 tonna, sholi uchun – 135-140 tonna va paxta uchun – 800-1000 tonna suv zarurdir. Suv o'simlik uchun fotosintez vazifasini o'taydi.

3.3.1-jadval

Qishloq xo'jalik ekinlarining sug'orish soni va me'yorlari*

№	Ekin turi	Sug'orish soni	Sug'orish me'yor, m ³ /ga	Mavsumiy sug'orish me'yor, m ³ /ga
1.	G'o'za	5-7	800-1200	5000-8000
2.	Kuzgi bug'doy	4-5	700-800	3000-4000
3.	Makkajo'xori	7-8	700-800	5000-6500
4.	Beda	10-12	1000-1200	10000-12000
5.	Qand lavlagi	6-8	500-600	3000-4000
6.	Tamaki	7-8	750-850	5000-6500
7.	Kartoshka (ertagi)	7-8	400-500	3000-4000
8.	Pomidor	15-16	600-700	9000-10000
9.	Piyoz	18-20	500-600	9000-12000
10.	Sabzi (kechki)	8-12	500-550	5000-6000
11.	Chuchuk qalampir	14-15	600-700	9000-10000
12.	Baqlajon	15-16	600-700	9000-10000
13.	Oqbosh karam	14-15	600-700	9000-10500
14.	Bodiring	12-14	500-550	6000-7500
15.	Sarimsoq	7-10	500-600	4000-60000
16.	Qovun	5-6	600-700	3000-4000
17.	Tarvuz	5-6	600-650	3000-3900
18.	Qovoq	6-7	650-750	4550-6000
19.	Kungaboqar	3	600-800	1800-2400
20.	Sholi	-	-	3000 gacha

*Manba: Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. –T.:Moliya, 2005.

3.3.1-jadvalda qishloq xo'jalik ekinlarining o'rtacha sug'orish soni va normalari ko'rsatilgan. Belgilangan suv resurslarini nobud etgan korxonalar jarima to'laydilar.

Yuqorida qayd etilgan qonunning 47-«Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish» moddasida quyidagilar ko'zda tutilgan:

«Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish ishlari boshqa qishloq xo'jalik korxonalari, tashkilotlari, muassasalari hamda dehqon xo'jaliklarining sug'oriladigan yerlarida qulay suv rejimi vujudga keltirish maqsadida amalga oshiriladi.

Suv ob'yektlaridan qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish suvdan me'yorlar bo'yicha foydalanishning belgilangan yo'siniga rioya etgan holda suvdan umumiy foydalanish tartibida ham, maxsus foydalanish tartibida ham amalga oshiriladi.

Suvdan maxsus foydalanish ruxsatnomasini sug'orish, suv chiqarish, zax qochirish tarmoqlaridan foydalanuvchi organlar belgilangan tartibda rasmiylashtiradilar».

Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanishni rejalashtirish moddasida, sug'orish, suv chiqarish va sug'orish - suv chiqarish tarmoqlaridagi, magistral kanallardagi, suv omborlaridagi va boshqa suv xo'jaligi ob'yektlaridagi suvlardan foydalanish ishlari suvdan foydalanishning ichki xo'jalik va umumiy tizimi rejalariga asosan yillik amaldagi suv bilan ta'minlanganlik hisobga olingan holda amalga oshirilishi, ikki tomonlama ishlovchi zax qochirish tarmoqlarida suvdan foydalanish meliorasiya qilingan yerlardagi suv rejimini tartibga solish ichki xo'jalik va umumiy tizimi rejaları asosida amalga oshirilishi, suvdan foydalanuvchi jamoa xo'jaliklari, boshqa korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalar tomonidan tuzilgan xo'jalik ichki suvdan foydalanish rejaları O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi suv ob'yektlaridan foydalanish boshqarmalari bilan muvofiqlashtirilib, tumanlarning hokimiyat organlari tomonidan tasdiqlanishi lozimligi ta'kidlangan. Yana, suvdan foydalanish umumiy tizimi rejalarini:

- tuman ahamiyatidagi tizimlar bo'yicha — tumanlarning hokimiyat organlari;
- viloyat, respublika ahamiyatiga ega tizimlar bo'yicha — tegishli ravishda viloyat, respublika qishloq va suv xo'jaligi organlari tasdiqlashlari bayon etilgan.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi sug'oriladigan va lalmikor dehqonchilikga bo'linadi. Sug'oriladigan zonalarda yuqorida aytilganidek, suv manbalaridan keladigan suvlardan foydalanilgan holatda dehqonchilik amalga oshiriladi.

Sug'oriladigan yerlarda suvdan foydalanishni o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ular qonunda quyidagicha belgilab qo'yilgan:

«Sug'orilgan yerlarda kanallar, murakkab muhandislik inshootlari, meliorasiya shahobchalari barpo etilganligi ana shunday yerlarning o'ziga xos xususiyatidir. Yerdan foydalanish mulkchilikning qaysi shakliga asoslanganligidan qat'iy nazar, suv fondi yerlaridan, sug'oriladigan yerlar doirasidagi xo'jaliklararo kanallar va inshootlardan, yer osti suvi chiqargichlari yagona suv xo'jaligi tizimi sifatida foydalaniladi va ular davlat mulki hisoblanib, ularni xususiylashtirish mumkin emas. Daryolar, magistral kanallar, kollektorlar, suv omborlari va boshqa suv havzalarining sohilbo'yi mintaqalari, yer osti suvi chiqargichlari sanitariya muhofaza tegrallarining I va II poyaslari tabiatni muxofaza qilish ehtiyojlari uchun yer egalari va yerdan foydalanuvchilardan olib qo'yilishi mumkin.

Sug'oriladigan dehqonchilik ehtiyojlari uchun suv ob'ektlaridan foydalanish suvlaridan limit bo'yicha foydalanishning belgilangan tartibiga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Suv olish va uning hisob-kitobini qilish ro'yxatdan o'tkazilgan suv manbalaridan (xo'jalik kanallarining bosh inshootlaridan, quduqlardan, nasos stansiyalari va boshqa suv olish inshootlaridan) suv ajratish joylarida tuman suv xo'jaligi organi bilan tuzilgan shartnomaga binoan amalga oshiriladi.

Suv manbalari, kanallar, kollektorlar va boshqa suv ob'ektlaridan foydalanuvchi qishloq va suv xo'jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlari yer solig'idan ozod qilinadilar».

Yuqorida qayd etilganidek, mamlakatimizda suv zahirasi juda kam. Andijon qishloq xo'jaligi institutining olimlarining yozishicha, bir davrlarda Amudaryoning suv o'tkazish qobiliyati 41 kub kilometr, Sirdaryoniki esa 27,5 kub kilometr teng edi. Hozirgi paytda har ikkala daryoning suvi keskin kamaygan va mamlakatda 58 kub kilometr miqdorida suv zahirasi bo'lib, bu mavjud oborotdagi qishloq xo'jalik yerlarining 16-17 foizini sug'orishga yetishi hisoblab chiqilgan. Yer osti suvlaridan foydalanish evaziga suv miqdori 60 kub km ni tashkil etishi hisoblangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

tomonidan qilingan hisob-kitoblarga ko'ra, 1 kub km chuchuk suvdan 113 ming tonna paxta, 116 ming tonna poliz va sabzavot, 41 ming tonna meva va uzum, 7 ming tonna sut, 400 tonna pilla olishda foydalanish mumkin.

Suvdan foydalanishda, eng avvalo, suvga bo'lgan talabni aniqlash muhimdir. Buning uchun har bir ekin turi bo'yicha yil mobaynida 1 gektar yer uchun qancha suv zarurligi aniqlanib, uni umumiy ekin maydoniga ko'paytirish yo'li bilan topiladi.

Suvdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi: 1 so'mlik xarajatlar hisobiga olingan qishloq xo'jalik mahsulotlarining, mehnat unumdorligining, sof daromad (foyda) ning o'sishi va shuningdek, 1 kub metr foydalanilgan suv hisobiga olingan qishloq xo'jalik mahsulotlarining, mehnat unumdorligining va sof daromad (foyda) ning o'sishi hisoblanadi. Suvdan o'simlikning talabidan kelib chiqqan holda rejali va me'yorda foydalanish yer resurslaridan foydalanishning va bir butun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishga olib keladi.

Shuning uchun mamlakatimizda suvdan tejab va unumli foydalanish uchun undan foydalanuvchilar oldiga katta vazifalar qo'yilgan. Bu o'z navbatida yuqorida qayd etilgan qonunning 50 – moddasida, ya'ni «Suv ob'yektlaridan qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanuvchilarning vazifalari» moddasida o'z aksini topgan:

«Suvdan qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanuvchilar:

- suvdan foydalanishning belgilangan limitlari, rejaları, qoidaları, me'yorları va rejimlariga rioya etishlari, tik drenajni inobatga olgan holda foydalanishning barcha turlari uchun ishlatilayotgan suvni hisobga olib borishlari;

- ichki xo'jalik sug'orish, suv chiqarish va kollektor-drenaj tarmog'i hamda undagi inshootlarni va suv chiqarish quduqlarini texnika jihatidan ishga yaroqli holda saqlashlari;

- meliorasiya qilingan yerlarni kompleks rekonstruksiya qilishlari va qishloq xo'jalik ekinlari hamda o'simliklarni sug'orish, shuningdek yaylovlarga suv chiqarishning maqbul rejimini saqlashlari;

- suvni tejaydigan texnologiyalar va ilg'or texnikani joriy etish orqali sug'orishning uslub hamda usullarini takomillashtirishlari;
- qishloq, xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanadigan suv monitoringa asosida salbiy jarayonlarning sabablari va oqibatlarini bartaraf etishlari;
- belgilab olingan aniq maqsadlarga muvofiq, foydalanilayotgan suvlarning samaradorligini oshirishlari shart.

Xo'jaliklararo meliorasiya tarmoqlarini ishga yaroqli holda saqlab turish uchun suv iste'molchilari qonunlarda belgilangan tartibda irrigatsiya-meliorasiya ishlarini bajarishga jalb etiladilar».

Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklarida suv resurslaridan foydalanish samaradorligining hozirgi holatini tahlil qilamiz. Buning uchun avvalo, ekin turlari bo'yicha sarflangan suv miqdorini hisoblab chikamiz.

Oqdaryo tumani "Oqdaryo sharshara Navro'z" SIUda turli ekin turlari bo'yicha turli darajada suv resurslari sarflangan va xarajat qilingan (3.3.2-jadval).

3.3.2-jadval

Oqdaryo tumani "Oqdaryo sharshara Navro'z" SIU hududidagi fermer xo'jaliklari shartnomaviy ko'rsatkichlar tahlili (2010-2013 yy.)*

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar				2013 yil 2010 yilga nisbatan o'zgarish	
			2010	2011	2012	2013	+/-	%
1.	Suv yetkaziladigan maydon	ga	28657	28657	28657	28657	0	100
2.	Yetkazib beriladigan suv miqdori	mln m ³	276	384	406	420	144	152,2
3.	Jami xarajatlar	mln so'm	201,3	210,4	220,8	245,5	44,2	122
4.	Jami undirilgan mablag'	mln so'm	201,3	210,4	220,8	147	-54,3	73
5.	Tuzilgan shartnomalar soni	dona	442	434	420	409	-33	92,5
	1 shartnoma hisobiga o'rtacha:							
-	yer maydoni	ga	64,8	66,0	68,2	70,1	5,3	108,1
-	yetkazib berilgan suv resursi miqdori	ming m ³	624,4	884,8	966,7	1026,9	402,5	164,5
-	sarf-xarajatlar	ming so'm	455,4	484,8	525,7	600,2	144,8	131,8
	undirilgan mablag'	ming so'm	455,4	484,8	525,7	359,4	-96,0	78,9

*Manba: Oqdaryo tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari. 2010-2013 yillar.

3.3.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Oqdaryo tumani "Oqdaryo sharshara Navro'z" SIU hududidagi suvdan foydalanuvchilar uyushmasi bilan 2013 yilda 409 shartnoma tuzilib, uning soni 2010 yil bilan taqqoslaganda 33 taga yoki 7,5%ga kamaygan. 1 shartnoma hisobiga to'g'ri keladigan o'rtacha suv resursi bilan ta'minlangan maydon: 2010 yilda - 64,8 ga, 2011 yilda - 66 ga, 2012 yilda-68,2 ga, 2013 yilda - 70,1 gani tashkil etib, o'rganilgan davrda 5,3ga yoki 8,1%ga oshgan. Suv iste'molchilariga 1 shartnoma hisobiga yetkazib berilgan suv resursi miqdori: 2010 yilda - 624,4 ming m³, 2013 yilda -1026,9 ming m³ bo'lib, tahlil etilgan yillar davomida 402,5 ming m³ yoki64,5%ga ta'minot darajasida o'sish kuzatildi.

Oqdaryo tumani "Oqdaryo sharshara Navro'z" SIUda 1 shartnoma hisobiga o'rtacha sarf-xarajatlar : 2010 yilda -455,4 ming so'm, 2013 yilda 600,2 ming so'm bo'lib, 2010-2013 yillar davomida 144,8 ming so'mga yoki 31,8%ga oshgan.

4. FERMER XO'JALIKLARIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

4.1. Tuproq unumdorligini oshirish va yerga ishlov berish tamoyil-lari va ularning afzalliklari

Zamonaviy yer haydash va yerga ishlov berish amaliyotlari sug'orish tizimlari samaradorligini hamda ekin hosildorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Sug'orish samaradorligiga ekinga kerakli vaqtda va hajmda suv berish bilan erishish mumkin. Tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan agrotexnologik tadbirlar, jumladan, yer tekislash amaliyoti suv qanday holatda va qay hajmda ekin maydoniga kirishi va chiqib ketishiga (infiltrasiya va suvning oqib ketish jarayonlari) ijobiy ta'sir etadi. Yerga ishlov berish amaliyotlari (yerni haydash va ekin mavsumiga tayyorlash jarayonlari) ham, suv qay tarzda o'simliklar ildizlariga yetib borishi va keyinchalik bug'lanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Egatlab sug'orishni samaralilashkil qila iganomillar ko'p. Yerning umumiy holati, tuproq tuzilishi, ekin maydonining tekisligi, egatlarning uzunligi, shakli va yig'ishtirib olingan hosil qoldiqlarining hajmi shular jumlasidandir. Sug'orish tiziminiboshqarish ham jumladan egat bo'ylab oqim tezligi, sug'orish davomiyligi va soni bunday tizimning samaradorligiga ta'sir etadi. Ko'pincha, sug'orish samaradorligi ekinlar sug'orilgandan so'ng o'simliklar faol ildiz doirasida qoladigan suv hajmi bilan o'lchanadi (suv sarfi samaradorligi). Demak, suvning yer osti chuqur qatlamlariga o'tib ketishi (ya'ni, suvning o'simliklar ildiz atrofi doirasiga nisbatan chuqurroq joylashgan yer qatlamlariga o'tib ketishi) va suvning ekin maydoni hududidan chiqib ketish darajasi minimal bo'lishi kerak, ayni paytda egat bo'ylab barcha ekinlarga yetarli miqdorda suv yetkazilishi lozim.

Tuproq unumdorligini oshirish hamda yerni ekin mavsumiga tayyorlash kabi tuproq unumdorligini oshiruvchi tamoyil va jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu amaliyotlar tuproqning infiltrasiya, ya'ni suvni o'zlashtirish xossasiga ta'sir etishi va buning oqibatida suv butun ekin maydoniga yetib borishi ta'minlanishi mumkin. Umuman, yerga ishlov berish va yerni ekin mavsumiga tayyorlash amaliyotlari soni qisqargan sari (ya'ni, ekin maydoni mavsumga yaxshi

tayyorlangan bo'lsa), suvning o'zlashtirishi kuchayib boradi. Bu ayniqsa, yerni plugda haydash hajmi kamaytirilib, yerga minimal ishlov berilganda yoki shudgorsiz haydalganda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Sug'oriladigan yerlarda dehqonchilik qilish va egatlab sug'orish usuli uchun bir qator talablarni amalga oshirish lozim. Yer tekislash orqali suv oqimi samaradorligini oshirish, shuningdek, mehnat va tabiiy resurslardan foydalanishni takomillashtirish zarur. Biroq, ayni paytda, yer tekislash amaliyoti to'g'ri tashkil qilinmasa, yerga salbiy ta'sir etishi ham mumkin, shuning uchun bunday tadbirni amalga oshirishdan avval bir qancha omillar hisobga olinishi kerak. Tuproqdagi jiddiy topografik o'zgarishlar deyarli har yerga ishlov berish jarayoni doim ekinlar hosidorligiga salbiy ta'sir etadi va bu tuproq unumdorligi tamomila tiklanguniga qadar davom etadi. Xuddi shu singari qishloq xo'jaligi mashinalari va boshqa mexanizmlarining qo'llanilishi yerning zichlanishiga, ya'ni qotib qolishiga olib keladi. Bu o'z navbatida suv o'zlashtirish imkoniyatini pasaytirib yuboradi. Biroq, yer tekislash jarayonining afzalliklari ko'p bo'lib, tekislangan maydonda ekinlarni sug'orish bir muncha qulay va osonroq kechadi. Yerning notekisliklari suvni ekin maydonining turli tomonlariga yo'naltirish borasida muammolar yaratadi. Mazkur talablarga javob berish maqsadida mavjud sath tuzilishi asosiy yer tekislash tadbiri yordamida o'zgartiriladi.

Yer tekislash afzalliklari:

- Sug'orish samaradorligi oshadi. Chunki yer notekis bo'lgani sababli egatlarni qisqa muddatda sug'orishni ko'zlab, asosiy ariqdan har 100-200 metr masofada olinadigan vaqtinchalik o'q ariqlar olib tashlanadi. Ma'lumki, o'q ariqlar ekinmaydoni yuzasining 10-15% egallaydi va ular olib tashlansa, dehqon bo'shagan yerlarda qo'shimcha hosil yetishtirish hisobiga ko'proq daromad olishi mumkin);

- Sug'orishga sarflanadigan suv samaradorligi oshadi, chunki yer yuzasi qanchalik tekis bo'lsa, ariqlardagi suv ham shunchalik tez harakat qiladi, demak, sarflanadigan suv hajmi kamayadi;

- tuproq zaxlanishi jarayoni bilan bog'liq muammolar soni kamayadi;
- sifon yordamida zamonaviy sug'orish usullaridan foydalanish imkoniyati tug'iladi;

- kamroq mehnat talab qilinadi (chunki suvni egat bo'ylab yetaklab yurishga ehtiyoj qolmaydi. Sug'orishlar soni kamaygani sari sarflanadigan ish soatlari (mehnat xarajatlari) ham qisqaradi ;

- sug'orish vaqti tejaladi;

- ekin maydoniga yo'naltiriladigan suv hajmi kamayadi (buning natijasida, ekin maydoni dadrenaj tizimi samaradorligi bir muncha oshadi va qishloq xo'jaligi mashinalarining dala bo'ylab harakati yaxshilanadi).

- Sho'rlanishning oldi olinadi (zaxlanishni kamaytirish yoki yo'qotish orqali sho'rlanishning asosiy omili bo'lmish yer osti suvlari sathi ko'tarilishining oldini olish mumkin);

- Tuproq eroziyasi rivojlanishining oldini olish osonlashadi;

- Qo'llaniladigan o'g'itlar samaradorligi nisbatan yuqori bo'ladi;

- ekinlarning bir xilda rivojlanishi va tezroq o'sishi ta'minlanadi;

- yerga chuqur (40-65 sm chuqurlikda) ishlov berish ekinlarning chuqur ildiz otishini ta'minlaydi, natijasida yerosti suvlari va oziq moddalardan foydalanish mumkin bo'ladi va ekin maydonini nisbatan kamroq sug'orish imkoniyati yaratiladi;

- hosil yetishtirish xarajatlari kamayadi.

Yertekislash afzalliklari ayniqsa notekis maydonlarda yaqqol bilinadi, biroq ekin maydonidan olib chiqilayotgan tuproq hajmi ortgani sayin xarajatlar ham ko'payadi. Yer tekislashdan oldin uni amalga oshirish uchun sarflanadigan xarajatlar hamda olinadigan daromadning umumiy miqdori aniqlashi darkor. Bunday hisob-kitoblar bir necha yil mobaynida qoplanishi mumkin bo'lgan xarajatlarni ham o'z ichiga olishi lozim (yer tekislash eng katta mablag' talab

qiluvchi amaliyotlardan biri bo'lib, katta sarmoyani talab etadi va bunday xarajatlar nisbatan uzoq vaqtdan (5-6 yil) so'ng qoplanadi). Dala sharoitida o'tkazilgan tajribalar shuni tasdiqladiki, yer tekislanishi natijasida sug'oriladigan suv hajmini 50% tejashga, hosildorlikni 30% gacha oshishga erishish mumkin. Bundan tashqari, yer tekislash borasidagi xarajatlar bevosita bunday tekislanish amalga oshiriladigan maydon xususiyatlariga bog'liqdir, shuning uchun bunday jarayonni amalga oshirishdan oldin tuproq tuzilishini o'rganib chiqish darkor.

Yer tekislash va bu orqali uning unumdorligini oshirish yerni ekin mavsumiga tayyorlash jarayonining bir qismi bo'lib, bu jarayonning asosiy maqsadi yerga ishlov berish xarajatlarini kamaytirish va daromadlarni ko'paytirishdan iborat. Dehqon yer tekislash bilan cheklanib qolmay, dala va asosiy ariqda sug'orish uchun mo'ljallangan suv resurslarini boshqarish tizimini ham yaxshilashi kerak (ko'p hollarda, ariqlarda suv nomuntazam ravishda harakat qiladi, shu bois dehqon suv harakatini qayta-qayta to'g'rilashga majbur bo'ladi. Oqibatda suv dalaning oxiriga yetib borguniga qadar dalaning bosh qismi suvga haddan ziyod to'yinib ketadi).

Tajriba xo'jaligida yer tekislash ishlari amalga oshirilgani va sifon bilan sug'orish tizimi yo'lga qo'yilishi natijasida quyidagi ijobiy natijalarga erishildi:

- ekin maydoni ravon sug'orildi va ekinlar bir xilda rivojlandi;
- sug'orish tizimi yaxshilandi va ekin maydonini sug'orishga sarflanadigan vaqt keskin kamaydi (15-20 kundan 3-4 kungacha);
- 30-50% suv tejaldi;
- ekin maydonidan vaqtinchalik ariqlar olib tashlangani sababli qo'shimcha ekin maydoni vujudga keldi;
- yerga ishlov berish soni kamaygani bois ekin maydonida texnika ishlatishga ketadigan xarajatlar kamaydi;
- ekin hosildorligi oshdi (deyarli 2 baravar);
- yerni ekin mavsumiga tayyorlash ishlari va hosil olish jarayoni tezlashadi, bir mavsumda ikki marta hosil olish imkoniyati paydo bo'ladi;

- bir gektar uchun ishlatiladigan yonilg'i hajmi 52.09 kg dan 40.43 kgga tushadi;

- tuproq zichlanishi kamayadi;
- bug'doy va paxta yetishtirish xarajatlari kamaydi.

Mazkur tajriba xo'jaligi uchun bajarilgan hisob-kitoblarga qaraganda, ekin maydonini lazerli mexanizmlar yordamida tekislash orqali hosildorlikning oshishi natijasida sarflangan dastlabki xarajatlar 5-6 yil davomida to'la qoplanadi.

4.2. Sug'orishda yangi texnologiyalarni qo'llash.

Tabiiy va xo'jalik sharoitlaridan kelib chiqib yerni sug'ormay ekinlardan mo'l hosil yetishtirish mumkin emas. Ekinlarni o'sish davrida me'yoridagidek rivojlanishi uchun kerakli oqova suvni sug'orish maydonida bir tekis taqsimlash, suvni tuproq va havo namiga aylantirib berishga qaratilgan tadbirlar majmuasi sug'orish usuli deb yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasining tabiiy-iqlim sharoitlari qurg'oqchil mintaqaga mansubdir, shuning uchun sug'orish ishlari asosan egatlar orqali, taxtalarga va cheklarga bo'lib amalga oshiriladi.

Sun'iy sug'orish o'tkazilganda quyidagilar ta'minlanishi kerak:

- yuqori ish unumdorligi;
- kam suv sarflab, yuqori meliorativ ko'rsatgichlarga erishish;

- sug'orish tarmoqlarining yuqori texnik ko'rsatgichlarga ega bo'lishi va boshqalar. Sun'iy sug'orish yaxshi natija berishi uchun bu jarayon o'rmon-texnika meliorasiyasi (sug'orish maydonlari atrofiga va sug'orish tarmoqlari qirg'oqlariga daraxtlar o'tkazish) va agrotexnik tadbirlar (yerlarni tekislash, ularni sug'orishga tayyorlash, eng maqbul sug'orish rejimini tanlash) bilan birga olib borilishi kerak. Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

- yer ustidan sug'orish;
- yomg'irlatib sug'orish;
- tuproq ichidan sug'orish;

- tomchilatib sug'orish;
- sizot suvlari sathini ko'tarib (subirrigatsiya) sug'orish;
- tuman hosil qilib sug'orish (dispers sug'orish usuli).

Yer ustidan sug'orish usulida suv tuproq ustidan taqsimlanadi hamda shu orqali namlanadi. Bu usul O'zbekistonda ko'proq qo'llaniladi. Chunki u qulay va oz mablag' talab qiladi. Sug'orish oddiy bo'lib, tuproq strukturasi yaxshi saqlanadi va hosildor qatlamni kerakli chuqurlikda namlantiradi. Suv sifatiga talab kam, tuproq sho'rini yaxshi yuvadi.

Yomg'irlatib sug'orish usulida suv maxsus mexanizmlar yordamida ekin maydoniga yomg'ir shaklida purkaladi va tuproqqa shimiladi. Bunda faqat tuproq emas, balki o'simliklarning ustki qismi ham namlanadi. Egatlab sug'orishga nisbatan mehnat unumdorligi 3-4 barobarga oshadi, 15-20 foiz suv tejaladi. Sug'orish me'yori o'rtacha 700-800 m³/gani tashkil qiladi va bitta agregat bir kunda 10-13 gektar ekin maydonini sug'ora oladi. Bu usul sug'orish ishlarini mexanizasiyalash va avtomatlashtirishdan tashqari tez-tez kam – hajmda sug'orish, qiyin mikrorelyefni suv bilan ta'minlash, hosildor qatlam chuqurligini kerakli miqdorda namlash imkonini beradi. Afzalligi – yerdan va suvdan foydalanish koeffitsiyenti yuqori bo'lib, mikroiqlimni yaxshilaydi.

Tuproq ichidan sug'orish usulida suv tuproq ustidan emas, balki ichidan o'rnatilgan quvurlar orqali tuproqning hosildor qatlamiga yetkazib beriladi. Hosildor qatlamning namlanishi asosan tuproqning so'rish kuchi hisobiga sodir bo'ladi. Tuproq kapillyarlar orqali namlanadi. Bu usulni sho'r bosgan tuproqlarda tadbiq qilib bo'lmaydi. Afzalligi – suv bug'lanib isrof bo'lmaydi.

Tomchilatib sug'orish usulida suv tuproqqa maxsus quvurlar hamda ularga o'rnatilgan tomchilatgichlar yordamida tomchi holida to'g'ridan-to'g'ri har bir o'simlikning ildiziga yetkazib beriladi. Afzalligi – suv o'simliklarning hosildor qatlamida uzluksiz mo'tadil namlik, havo, ozuqa va tuz rejimlarini vujudga keltiradi, suv ekin ildiziga to'g'ridan-to'g'ri beriladi.

Sizot suvlari sathini ko'tarib (subirrigatsiya) sug'orish usulida sun'iy ravishda sizot suvlarining sathi ko'tarilib (kollektor va zovur tarmoqlarini yopib qo'yish

bilan), tuproqning so'rish kuchi hisobiga hosildor qatlam namlanadi. Afzalligi – suv tejaladi, bug'lanib isrof bo'lmaydi.

Tuman hosil qilib sug'orish usulida esa suv maxsus nasoslar yordamida quvurlar orqali bosim bilan ekin maydoniga tuman holatida parchalab beriladi. Bu usul asosan yerning mikro ob-havo sharoitini yaxshilash maqsadida ishlatiladi. Afzalligi – yuqori havo harorati me'yoriga keltirilishi evaziga suv tejaladi.

Sug'orishning biror usulini tanlashda har bir maydonning xo'jalik va texnikaviy talablari, shuningdek, iqlim, topografik va tuproq sharoitlari hisobga olinishi maqsadga muvofiq.

Sug'orishning har bir usuli o'ziga xos bo'lgan boshqariladigan sug'orish tarmoqlari tuzilishi va tegishli sug'orish texnikasi bilan, ya'ni sug'orish uchun beriladigan suvni sug'orish tarmog'idagi oqim holatidan sug'oriladigan dalalar tuprog'i namligiga va bu suvni o'simliklarga uzatish usullari bilan xarakterlanadi. Shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, sug'orish usulini to'g'ri tanlash va sug'orish texnikasini to'g'ri hal qilish yerlardan samarali foydalanishda katta ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jalik ekinlari turi bo'yicha yoppasiga va qatorlab ekiladigan ekinlarga bo'linadi. Ularning har qaysisi o'ziga mos sug'orish usulini talab qiladi.

Jumladan:

- ko'p yillik ekinlarni tomchilatib sug'orish yaxshi natija beradi (tog'li joylardagi bog' va uzumzorlarni);
- yoppasiga ekiladigan ekinlar asosan yer ustidan cheklarga bo'lib sug'oriladi (sholi va boshqa ekinlar);
- egatga ekiladigan ekinlar uchun asosan yer ustidan egat olib, tuproq ichidan va yomg'irlatib sug'orish usullari qo'llaniladi (g'o'za va boshqa ekinlar).

Sug'orish usullarining samaradorligi

Sug'orish usuli	Tuproqni namlash	Havoni namlash	Tuproqda nam yig'ish	Sho'r yuvish	Tuproq yemirilishi oldini olish	O'g'it berish	Chiqindi suv bilan sug'orish	O'simlikni namlash	Begona o'tlarni oldindan undirish
Yer ustidan	+	-	+	+	-	x	x	-	+
Yomg'irlatib	+	+	-	-	x	x	x	+	+
Tuproq ichidan	+	-	+	-	+	+	+	-	-
Tomchilatib	+	-	-	-	+	+	-	-	-
Subirrigatsiya	+	-	+	-	+	-	-	-	-
Tuman hosil qilib	x	+	x	-	+	x	-	+	x

*Eslatma: + - mumkin; - - mumkin emas; x - qisman mumkin

Sug'orishning har bir usuli va unga mos texnikasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Sug'oriladigan ekindan eng yuqori hosil olishni ta'minlaydigan suv va u bilan bog'liq havo, ozuqa, tuz rejimlarini saqlash;
2. Unumdor qatlamda kerakli namlikni hosil qilish va uning ekin maydoni bo'ylab bir tekis taqsimlanishini ta'minlash;
3. Tuproqning qumoq strukturasi saqlash;
4. Sug'oriladigan maydondagi ekinlarni mexanizasiyalashtirish uchun maksimal shart-sharoitlarni yaratish;
5. Suvdan foydalanish vaqtida undan boricha samarali foydalanish.

Sug'orish samaradorligini oshirish:

- Barcha suv iste'molchilariga kerakli hajmda suv yetkazib berish uchun fermerlar o'zaro hamkorlikda samarali suvdan foydalanish rejasini tuzishlari lozim.
- Fermerlar ekin turlaridan kelib chiqib sug'orish jadvalini ishlab chiqishi lozim. Bu ekinni kerakli vaqtda va yetarli xajmdagi suv bilan sug'orish imkonini beradi.

- Zichlashgan tuproq suvdan samarali foydalanish imkoniyatini pasaytiradi. Chunki o'simlik ildizlari chuqurda joylashgan namlikni o'zlashtira olmaydi. Suvdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun yerni chuqur yumshatish va qishloq xo'jalik texnikalarining nam tuproq ustida harakatlanishini kamaytirish zarur.

- Sug'orish jadvaliga rioya qilmaslik zaxlanishni vujudga keltiradi. Tuproq yetarli namlangandan so'ng sug'orishni to'xtatish lozim.

- Sug'orishning kechiktirilishi natijasida o'simlikning chanqashiga sabab bo'ladi. U nimjon rivojlanadi yoki kasallikka chalinuvchan bo'lib qoladi. Shuningdek bu holat ekinning sekin o'sishi va poyasining yuqori qismi so'lishiga olib keladi.

Har bir ekin uchun o'ziga xos sug'orish usuli mavjud. Bu ekin maydonini bir xil me'yorda, ya'ni nam ham, yoki quruq ham bo'lmagan holatda saqlash imkoni beradi. Bu o'simlikning sog'lom rivojlanishini ta'minlaydi. Suvga talabi kam bo'lgan ekinlar yerning ortiqcha namlanishidan yoki qurg'ochilikdan zararlanishi mumkin. Tuproqdagi ortiqcha namlikning alomatlari juda sekin ko'zga tashlanadi, uni bartaraf qilish esa anchagina mushkul. Tuproqni sug'orish oraliqlarida quruq bo'lishiga amal qilish va ekinga ehtiyoj sezilganda suvberish maqsadga muvofiqdir. O'simlikni hyech qachon chanqatib qo'ymang, aksincha uning o'sishdan to'xtashiga birinchi sabab shudir.

- O'simlikning suvga bo'lgan talabini o'z vaqtida qondirish uning yaxshi rivojlanish omillaridan biridir.

4.3. Meliorativ holatni yaxshilashga investitsiyalarni kiritish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 9 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2008 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risidagi" PQ-704-sonli qarori asosida Qishloq va suv ho'jaligi vazirligi tomonidan Hukumat kafolati bilan 2008 yil Investitsiya dasturiga kiritilgan 14 ta loyiha bo'yicha 76,02 mln. AQSh dollarini o'zlashtirilish rejalashtirilgan bo'lib, amalda 77,34 mln. AQSh dollaridagi

mablag'lar o'zlashtirildi. O'tgan yilga (44,9 mln. AQSh doll.) nisbatan o'sish 172,2 foizni tashkil etdi.

Mazkur loyihalar Xalqaro rivojlanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, OPEK halqaro taraqqiyot Jamg'armasi va XXRsi Eksimbanki krediti hamda O'zbekiston Respublikasi davlat ulushi mablag'lari hisobidan moliyalashtirilmoqda.

Jumladan, Xalqaro rivojlanish va taraqqiyot banki mablag'lari hisobidan umumiy qiymati 74,55 mln AQSh dollarini tashkil etgan 1 ta, Osiyo Taraqqiyot Banki mablag'lari ishtirokida jami qiymati 300,78 mln. AQSh dollarini tashkil etadigan 4 ta, XXRsi Eksimbanki kredit mablag'i ishtirokida umumiy qiymati 93,2 mln. AQSh dollarini tashkil etgan 7 ta va OPEK halqaro taraqqiyot Jamg'armasi mablag'lari ishtirokida Loyihaning umumiy qiymati 18,48 mln. AQSh dollarini tashkil etgan 1 ta loyiha amalga oshirilmoqda.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 9 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2008 yil Investitsiya dasturi to'g'risida»gi PQ-704-sonli qaroriga asosan vazirlikka joriy yilda irrigatsiya qurilishini olib borish uchun 21,0 mlrd so'm kapital mablag'lar limiti ajratilgan.

Jami ajratilgan 21 mlrd so'm kapital qo'yilmalar limiti irrigatsiya qurilishi ob'yektlari bo'yicha vazirlikning Ilmiy-texnik kengashi yig'ilishida taqsimlanib, belgilangan tartibda tasdiqlandi. Ajratilgan kapital qo'yilmalar limitidan 2,1 mlrd.so'mi 2007 yilning besh foizli qafolat muddati bo'yicha kreditor qarzdorlikni qoplashga yo'naltirildi, shundan 1,88 mlrd.so'm Rezaksoy suv ombori qurilishi bo'yicha ushlama, 2009 yil uchun loyiha ishlarini joriy yilda olib borish uchun 1,05 mlrd.so'm yo'naltirildi. Irrigatsiya qurilishi ob'yektlardan 16 tasida belgilangan tartibda tender savdolari orqali pudrat tashkilotlari aniqlandi. 17,4 mlrd.so'm kapital qo'yilmalar asosan suv omborlar, nasos stansiyalar, kanallar, gidrotexnik inshootlar va boshqa irrigatsiya qurilishi ob'yektlariga yo'naltirildi, shu jumladan Namangan viloyatidagi Rezaksoy suv ombori qurilishining ikkinchi navbatini, Jizzax viloyatidagi Arnasoy, Farg'ona viloyatidagi Markaziy-Farg'ona suv omborlarini loyihalashtirib, qurilish ishlariga yo'naltirildi hamda ularga

qo'shimcha mablag' ajratilib joriy yilga belgilangan hajmlar bajarildi.

2008 yil dasturida quyidagi yirik ob'yektlarda qurilish ishlari davom ettirildi, sug'oriladigan yerlarga kafolatli suv yetkazib berish uchun kanallarni qurish va tiklash bo'yicha – Qoraqalpoqiston Respublikasida “Bo'ston”, Andijon viloyatida “Andijonsoy”, Namangan viloyatida “Podshoota” va boshqa kanallarda, Namangan viloyatida Jidalisoy, Jizzax viloyatida Oqbuloq, Samarqand viloyatida Akchobsoy va Kamongoron suv omborlar va boshqa suv ta'minotini oshirishga qaratilgan suv omborlarda qurilish ishlari olib borildi.

2009 yilda 27,9 mlrd.so'm yoki rejaga nisbatan 111 foiz kapital mablag' o'zlashtirildi, shu jumladan qurilish montaj ishlari 23,1 mlrd.so'mga (109%) bajarildi.



6-rasm . 2008-2012 yilda sotib olingan meliorativ texnikalar qiymati*

*Manba: Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o'rinbosarlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchilari, tuman va shahar hokimlarining mintaqaviy seminarlari materiallari, 14 yanvar– 1 fevral 2009l.

5. MELIORATIV TEXNIKALARNI ISHLATISH HAMDA TA'MIRLASH JARAYONIDA HAVFSIZLIKNI TA'MINLASH

Meliorativ texnikalarni ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish jarayonida haydovchilar va yordamchi ishchilar bilan ba'zi holatlarda turli xil baxtsiz hodisalar sodir bo'lib turadi. Buning oqibatida moddiy zarar ko'riladi, ishchilar turli darajadagi tan jarohati oladi, sog'ligi yomonlashadi, ba'zan esa o'lim hodisasi ham sodir bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida yuz beradigan baxtsiz hodisalarning turli sabablari mavjud. Masalan, ma'lum bir holatlarda mashina va mexanizmlarning inson xohishiga bog'liq bo'lmagan turli xil noqulay tashqi omillar (yuqori yoki past temperatura, qor, yomg'ir, shamol, sirpanchiqlik, botqoqlik quyosh radiyasiyasi va h. k) ta'siri ostida ishlatilishi natijasida baxtsiz hodisalar sodir bo'ladi. Lekin yuz beradigan baxtsiz hodisalarning asosiy qismida inson va texnika omili hal qiluvchi hisoblanadi. Bu omillarga ishni noto'g'ri tashkil qilish, qo'llanilayotgan mashina va mexanizmlarning amaldagi texnika xavfsizligi, hamda ishlab chiqarish sanitariyasi standartlari talablariga javob bermasligi, mavjud texnika va mexanizmlardan noto'g'ri foydalanish yoki ularning soz holatda ishlatish, ishchilar tomonidan texnik himoya vositalarini qo'llamaslik, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanmaslik, hamda mehnat va texnika xavfsizligi yo'riqnomalari talablariga to'liq amal qilmasdan ularni qo'pol ravishda buzishlar va boshqalar kiradi.

Baxtsiz hodisalarning oldini olish maqsadida qishloq xo'jaligi texnikasi haydovchilaridan va yordamchi ishchilardan tegishli mehnat xavfsizligi yo'riqnoma, ko'rsatmava qoidalari talablari asosida ishlarni tashkil etish talab etiladi.

Qishloq xo'jaligidagi mavjud texnikalarni muntazam ravishda davriy texnik nazoratdan o'tkazish va amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning texnika xavfsizligi bo'yicha bilimlarini tekshirib borish baxtsiz hodisalarning oldini olishda katta yordam beradi.

Mehnat muhofazasi bo'yicha me'yoriy hujjat talablarini buzgan ishchilar xo'jalik ichki tartibi va mehnat muhofazasi talablari asosida javobgarlikka tortiladi. Ba'zi og'ir holatlarda amaldagi davlat qonunchiligi asosida jinoiy javobgarlikka ham tortilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan traktor va ekskavatorlarni ishlatishga hamda texnik xizmat ko'rsatishga 18 yoshdan kam bo'lmagan, tegishli ruxsatnomaga ega, davriy tibbiy ko'rik va mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnomalardan o'tgan, mashinada yong'in yuz berganda uni o'chirish usullarini, jarohatlanganlarga birlamchi tibbiy yordam berish uslublarini hamda yo'l harakat qoidalarini mukammal bilgan shaxslarga ruxsat etiladi.

Bu shaxslar mashina va mexanizmlarning, ularga ulanadigan mexanizm va qurilmalarning quyidagi tavsiflarini bilishlari zarur:

- mashina va mexanizmlarning ish bajarish va qo'llash;
- mashina va mexanizmlarning kuch tizimi kinematik sxemasi, tuzilishi va ishlashi;
- mashina va mexanizmlarning moylash kartasi, motordagi, transmissiyadagi va boshqa qismlardagi moylarni almashtirish davriyligiva hajmlari;
- mashina va mexanizmlarni sozlash, uning tartibi va davriyligi;
- mashinavamexanizm qismlarini yig'ish yechish va ularning massasi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- mashina va mexanizmlarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish tartibi va talabi;
- motorga texnik xizmat ko'rsatish va ishlatish bo'yicha ko'rsatma;
- mashina va mexanizmlarni ishlatishda asosiy kattaliklar bo'yicha (tezlik, yuklanish va boshqa) yo'l qo'yiladigan chegaralangan miqdori;
- mashina va mexanizmlardagi tez yeyiluvchan va ishdan chiquvchi qismlar (tormoz va ilashish muftalari lentolari, kolodkalari, tasmalar, podshipniklar, salniklar, lampalar va boshqa) almashtirish va sozlash;
- g'ildirakli mashina va mexanizmlar uchun burilish radiusi, bo'ylama o'tuvchanlik tavsifi, qiyalikda ishlashning chegara burchagi, shinalarning standart

o'lchamlarini va ulardagi me'yoriy havo bosimi qiymatini, orqa va oldingi o'qlarga tushadigan yuklanishlarning yo'l qo'yiladigan miqdorlari;

- haydovchi o'ziga ishonib topshirilgan mashina va mexanizmlarni begona shaxslarga boshqarishga yoki texnik xizmat ko'rsatishga bermasli;

- mashina va mexanizmlarni ishlatganda hamda ularga texnik xizmat ko'rsatganda amal qilinishi kerak bo'lgan texnika xavfsizligi talablari va hak.

Meliorativ texnika va mexanizmlarning nosoz bo'lishi yoki ular konstruksiyasining amaldagi mehnat xavfsizligi ishlab chiqarish sanitariyasi standartlari talablariga umuman javob bermasligi baxtsiz hodisalar yuz berish xavfini yanada oshiradi. Shu sababli mashina va mexanizmlar texnik holatiga qo'yiladigan asosiy talablar bajarilishini doimo nazorat qilib turish kerak. Bular quyidagilardir:

- mashina va mexanizmlarning turli tizim va qismlarining (kabina, motor, tormoztizimi, boshqarish tizimi, yurgizuvchi qismi, shassisi, kuchuzatish qismlari, gidravlik kuch tizimi, elektr jihozlariva h.k) texnik holati chiqaruvchi zavodning texnik tuzilish bayonnomasida va ishlatish bo'yicha yo'riqnomasida keltirilgan texnikaviy tavsiflar talablariga to'la mos kelishi;

- mashina va mexanizmlarning harakatlanuvchi, aylanuvchi qismlari (kardan, zanjirli, tasmali, tishli uzatmalari va boshqalar) va boshqa xavfli zonalari xavfsizlikni ta'minlaydigan darajada himoya to'siqlari bilan to'silganligi;

- mashina va mexanizmlardagi xavfli zonalar to'g'risida ogohlantiruvchi yozuv va belgilarning yo'qolib ketmaganligi;

- mashina va mexanizmlarda ularni ishlab chiqargan zavod yo'riqnomasida berilgan ro'yxatga asosan sozva to'la to'plamdagi mexanizmlar (tibbiy yordam aptechkasi, yong'in o'chirgich mexanizmi, suv idishi, ta'mirlash mexanizmlari va h.k.) mavjudligi;

- mashina va mexanizmlar konstruksiyasiga ishlab chiqargan zavod yo'riqnomasida ko'rsatilgandan tashqari qo'shimcha jihozlar, ishchi qismlar va boshqa o'zgartirishlar kiritilmasligi;

- o'zi yurar qishloq xo'jaligi mashinalarida (traktorlar, ekskavatorlar va boshqa) davlat ro'yxati belgilarining bo'lishligi.

Baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun texnikadan foydalanuvchi har bir shaxs texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi talablariga javob bergan holda ish tashkil qilishi kerak. Shuning uchun har qanday mashina yoki texnikadan foydalanishdan oldin mashinaning barcha qismlari, uzellari, moy idish va shlanglarini va boshqa tegishli joylari, hamda umumiy texnik holati tashqi kuzatuvdan o'tkazilishi zarur. Tashqi kuzatuvda aniqlangan nosozliklarni talab darajasida sifatli tuzatgandan keyingina uni yurgizish (o't oldirish) yoki ishlatish mumkin.

Mashina va mexanizmlarni ishga tushirishdan oldin quyidagilarni bajarish tavsiya etiladi:

- mashina va mexanizmlarning texnik holatini har tomonlama aniq va puxta ko'zdan kechirib chiqish, hamda aniqlangan buzilishlar va kamchiliklarni tezda talab darajasida sifatli tuzatish;

- alohida e'tibor bilan boshqarish mexanizmlarini, ilashish muftasi, tormoz tizimi, yurish mexanizmlari, shassi holativa ishchi mexanizmlarning ulanish joylari mustahkamligini tekshirib chiqish kerak; bu mexanizmlarning holati ko'rsatkichlari tayyorlovchi zavodning texnik tuzilish bayonnomasida va ishlatish bo'yicha yo'riqnomasida keltirilgan texnikaviy tavsiflar talablariga to'la mos kelishi lozim;

- motorni yoqilg'i bilan ta'minlash tizimi germetikligini katta e'tibor bilan tekshirish va oqish holatlari aniqlansa zudlik bilan tuzatish kerak;

- motorni moylash tizimining germetikligini, undagi moy sathi darajasini tekshirilishi va oqish holatlari aniqlansa zudlik bilan tuzatilishi kerak;

- mashina va mexanizmlarning gidravlik kuch tizimi diqqat bilan ko'zdan kechirilishi, agarda qismlarida va shlanglar ulanish joylaridan moy oqish holatlari aniqlansa zudlik bilan bartaraf qilinishi lozim;

- mashina motorining sovutish tizimi germetikligi tekshirilishi, agarda suyuqlik oqishi aniqlansa (ayniqsa sovutuvchi suyuqlik antifriz bo'lsa) bu holat tezlikda bartaraf qilinishi lozim;

- mashina va mexanizmlar ostidagi yer yuzasida hosil bo'ladigan suyuqlik, yoqilg'i va moy izlari ular qismlari holatini aniqlashda katta yordam beradi; shu sababli mashina ostini va mashina turgan joydagi yer yuzasini doim ko'zdan kechirish haydovchilar uchun odatiy hol bo'lishi kerak;

- mashina va mexanizmlarning yoritish va gabarit chiroqlari, tovushli yoki boshqa turdagi ogohlantirish vositalarining ishlashi tekshirilishi lozim;

- harakatlanuvchi qismlarning va boshqa xavfli zonalar to'siqlarining mavjudligi va holati nazorat qilinishi kerak;

- haydovchi ish o'rni - kabina holati, undagi zarur anjomlar (tibbiy yordam aptechkasi, yong'in o'chirgich, suvidish, ta'mirlash mexanizmlari va h.k.) mavjudligi tekshirilishi kerak.

Qishloq xo'jaligi traktorlari va ekskavatorlari qattiq yuzali yo'llarda yurar ekan, biroz chayqaladi. Bunday chayqalishning asosiysababi traktor orqatarafida o'ta og'ir yuk borligidir. Bunday chayqalish, ayniqsa, traktorning oldi tarafida hyech qanday og'irvositalar, xususantraktorkuragi bo'lmasa, yanada kuchayadi. Bunday chayqalishni har doim ham nazorat ostida saqlash mumkin emas. Haydovchi traktorni o'ta tezlik bilan boshqarsa, bunday chayqalish salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Agar traktoringiz chayqala boshlasa, mashinani sekinlashtiring, aks holda, traktor ag'anab ketishi mumkin.

Yerni kavlashdan oldin traktor stabilizatorlarini albatta kerakli holatda o'rnatish va traktor haqiqatan ham g'ildiraklarida turmayotganligiga ishonch hosil qiling. Traktorning old kuragi yoki pichog'i ham biroz pastga tushirilishi kerak, bu orqali traktorni/ekskavatorni muvozanatda saqlash bir muncha yengilroq bo'ladi. Agar mashinanin g'stabilizatorlari yaxshi o'rnatilmasa, yerni kavlash jarayonida paydo bo'ladigan keskin harakatlar mashina g'ildiraklariga salbiy ta'sir etadi va natijada g'ildiraklar muddatidan oldin ishdan chiqadi.

Ekskavatorni boshqarar ekansiz, uning o'qini yengil, keskin harakat larsiz ishlating, chunki bunday keskin harakatlar mashinaning tez orada buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Ekskavator o'qini to'la uzunligiga cho'zgan holda ishlatmang, buning o'rniga ekskavatorning o'zini bir muncha oldinga siljiting, chunki ekskavator o'qini to'la uzunligiga cho'zgan holda ishlatish mashinaning bosh qismiga bo'lgan bosimning oshib ketishiga olib keladi. Mashina stabilizatorlar yordamida ko'tarilgan holatda chayqala boshlashi siz ekskavator bilan o'ta og'ir yukni ko'tarayotganingizdan dalolat beradi va bunday holat mashinaning bosh qismiga bo'lgan bosimning oshib ketishiga olib keladi.

Ekskavatorni texnika havfsizligi qoidalariga to'laligicha amal qilmasdan ishlatish sog'lig'ingizva hayotingizga havf solishi mumkin. Har yili ekskavatorlarning boshqaruvchilari havfsizlik qoidalariga rioya qilmaganliklari sababli, ko'plab insonlar hayotdan ko'z yumadi. Ekskavatorning o'qi uning yonida turgan kimsalarni urib yuborish hodisalari ko'p marta sodir bo'lgan. Shuning uchun, ekskavator ishlayotgan paytida yonida turmang va yosh bolalar va boshqa ishchilarga ekskavator yoniga yaqinlashishiga ruxsat bermang.

Yana bir ishchilar hayotiga zomin bo'ladigan noxush hodisa bu ishchilarning yangi kavlangan chuqur ichida ko'milib qolishidir. Yangi kavlangan tuproq o'ta muvozanatsizdir. Yangi kavlab chiqarilgan tuproq, chuqurdan uzoqroqda saqlanishi kerak bo'lib, bunday holat noxush voqyealar oldini olishga yordam beradi. Ekskavator boshqaruvchisi, chuqurdan tuproq kavlab olayotganida, chuqurda boshqa ishchilar qolmaganiga to'la amin bo'lishikerak.

Kanallar chetida turgan holda, iloji bo'lsa, ishlamang, chunki mashina osonlikcha ag'darilib ketishi mumkin va buning oqibatida ekskavator boshqaruvchisi hayotdan ko'z yumishi yoki tan jarohati olishi mumkin. Kanalga nisbatan perpendikulyar (90 daraja holatida) holatda ishlang. Agar kanal chetida ishlashingiz kerak bo'lsa, ekskavator kuragidan yukni tushirayotganingizda ekskavator o'qi tepaga qarab turishini ta'minlang, chunki, ekskavator o'qi pastga qarab turgan bo'lsa, mashina osonlikcha ag'darilib ketishi mumkin va buning

oqibatida ekskavator boshqaruvchisi yoki yon-atrofda turgan insonlar hayotdan ko'z yumishi mumkin.

Traktorga biriktirilgan qo'shimcha texnik vositalarga (xususan, ekskavatorga) mexanizm sifatida qarash kerak. Ekskavatorlar bir tarafdin zarur va kerakli texnika mexanizmi hisoblansa, ikkinchi tarafdin texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilinmasdan ishlatilsa, ishlovchilar uchun juda xavfli mexanizmga aylanishi mumkin.

Haydovchilar tomonidan qilinadigan sabrsizlik, e'tiborsizli o'rsatish holatlari va ularning mexanizmlarni boshqarish uchun jismoniy kuchining yetishmasligi traktor va ekskavatorlarni ishlatish borasida eng katta baxtsiz hodisalarga olib keluvchi omillardir.

Sovuq vaqtlarda motorni ochiq alanga bilan isitmang. Isitish mexanizmlarini qarovsiz qoldirmang.

Buldozer bilan tuproq ko'chirilayotgan paytdaag'darg'ich tuproq qatlamiga ko'tarilishda kirib qolmasligini kuzatib turish lozim. Nishabligi yuqoriga 15° dan, pastlikka 30° dan, ko'ndalang pastlikka 15° da ziyod bo'lganda buldozer bilan tuproq ko'chirish ta'qiqlanadi.

Tik tushgan qiyaliklar va tuproq ishlarida buldozerning ag'darilib qolmasligi uchun uni keskin burish mumkin emas. 6° dan ziyod bo'lmagan nishablikda buldozerni aylantirishga yo'l qo'yiladi. Cho'michi tuproqqa to'ldirilgan yoki egilgan holda buldozerni aylantirish ta'qiqlanadi.

Tuproq to'kilib tushayotgan chegarada buldozerning ishlashiga yo'l qo'yilmaydi.

Tekislash ishlarida qator borayotgan buldozerlar orasidagi masofa kamida 2m. ketma – ketborayotganda kamida 20m. Bo'lishi zarur.

Suv osti tuprog'i qanday bo'lishidan qat'iy nazar 0,6 m. dan ziyod chuqurliqdagi suv ichida buldozerning ishlashi ta'qiqlanadi, shuningdek yomg'irli havoda soz tuproqda ishlash mumkin emas.

Motor to'xtatilmasdan avval odamlarning traktor va buldozer ramasi, shuningdek traktor bilan cho'michi orasida bo'lishi ta'qiqlanadi.

Cho'michni tozalash zarur bo'lganda buldozerni to'xtatish hamda cho'michni yerga tushirish lozim.

Traktor va unga ulangan texnik mexanizmlar ostida o'tirmang, orasida yurmang, ularni aylanib o'ting. Agar siz charchagan bo'lsangiz ko'p xatolarga yo'l qo'yishingiz mumkin, shuning uchun charchagan hollardat raktorni haydamang; motorni o'chiring va ma'lum muddat dam oling. Bunday sodda tavsiya va maslahatlar sizning sog'ligingizva hayotingizni, yoningizda ishlayotgan ishchi hayoti yoki biror insonning (yosh bolaning) hayotini saqlab qolishi mumkin.

Traktorni texnik ko'rikdan o'tkazish va texnik xizmat ko'rsatishdan oldin bevosita sizning traktoringizni domkrat yordamida ko'tarish, g'ildiraklarini qayta o'rnatish va boshqa ko'zlangan vazifalarni bajarish uchun mos keladigan texnik vositalar borligiga amin bo'ling.

Ko'rikni o'tkazadigan ishchilar o'ta tajribali bo'lishi darkor. Bundan tashqari, xavfli vaziyatlarning oldini olish uchunaniq texnik ko'rikdan o'tkazish usuli tanlanishi kerak.

Tan jarohati olmaslik uchun traktorning og'ir qismlarini ko'tarishda texnik soz holatdagi maxsus ko'tarish mexanizmlarni ishlatish lozim. Traktorlarga texnik xizmat ko'rsatish vaqtida atrofda begona odamlarning bo'lishi ta'qiqlanadi.

Tana jarohati yoki boshqa noxush holat ro'y berish ehtimoli oshgani sari bunday holatning oldini olish va uning zararini kamaytirish borasida harakatlarni amalga oshirish ehtiyoji oshadi.

Traktorlarni ta'mirlash vaqtida amal qilinishi lozim bo'lgan texnika xavfsizligi talablari quyida keltirilgan:

- traktor tormozi, ilashish muftalarining holatini, ularning uzatmalarini muntazam ravishda maxsus yo'riqnoma asosida tekshirish va sozlash;
- traktor ruli, chiqindi gazlarni chiqarish tizimi va tormozi har doim soz holatda bo'lishini ta'minlash;

- traktoringizga yoqilg'i yoki moy quyishdan va qismlarini moylashdan oldin motorni o'chirish; motorga xizmat ko'rsatish zarur bo'lsa uning sovishini kutish;
- traktor motorining sovutish tizimi texnik holatini tekshirish;
- traktorning elektr mexanizmlari (akkumulyator, yoritish chiroqlari, signal chiroqlari va h.k.) holatini tekshirish;
- ishchilarning yiqilib tushishini oldini olish uchun traktorlarni ta'mirlash ishchi maydonchasi va uning atrofidagi zina va yo'laklarni moy, chiqindi va boshqa qoldiqlardan xoli bo'lishini ta'minlash;
- radiator qopqog'ini yechishdan oldin motorning biroz sovishini kutish;
- motorni o'chirishdan oldin traktorning old tig'i va ekskavator cho'michini pastga tushirish va hakoza.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini qayta qurish jarayoni tamoyilida suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish va sohani bozor munosabatlari prinsiplariga asosan qayta qurishni taqazo etmoqda.

Suv iste'molchilari uyushmasi (SIU) zimmasiga xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlarini bir maromda ishlatish, ikkilamchi suv iste'molchilari o'rtasida adolatli suv taqsimotini o'rnatish, sug'orishning ilg'or texnologiyalarini joriy qilish hamda ularning huquqlarini himoya qilish kabi vazifalar yuklatildi. SIU - bu bir sug'orish tarmog'ida joylashgan barcha ikkilamchi suv iste'molchilarining ixtiyoriy ravishda birlashgan tashkilotidir.

Suv iste'molchilar uyushmalariga qator imtiyozlar yaratilgan. Chunonchi, SIUlar notijorat shaklda faoliyat ko'rsatgani uchun O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan notijorat tashkilotlarga berilgan barcha imtiyozlardan foydalanadilar. Respublika Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 yanvardagi 8-sonli qaroriga asosan suv iste'molchilari uyushmalari xizmatlari qo'shilgan qiymat solig'i, foyda va mulk solig'i hisoblanishi va to'lanishidan 2 yil muddatga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi PF-3342-Farmoniga asosan suv iste'molchilari uyushmasining xizmatlari qo'shilgan qiymat solig'i, daromad va mulk solig'ini qo'shish va to'lashdan 3 yil muddatga ozod qilingan.

Hozirgi kunda suv resurslari bilan ta'minlash muammosi yanada kuchayib borayotganligi uchun suv iste'molchilari uyushalarini boshqarish samaradorligi mavzusini o'rgandik va quyidagi xulosalarga keldik:

1. Suv iste'molchilar uyushmasi (SIU) bir yoki undan ortiq kanal atrofidagi suv iste'molchilarning xohish irodasi bilan tuziladigan va ular tomonidan boshqariladigan notijorat tashkilotdir.

2. Suvdan foydalanishni boshqarish bo'yicha respublikamizda suv resurslarini boshqarishning havza tamoyiliga o'tilishi suv resurslarini eng cheka sug'oriladigan yerlarga kadar yetkazib berilishiga sabab bo'lmoqda.

Oqdaryo tumani SIU 469 fermer xo'jaligiga taalluqli 28657 ga sug'oriladigan yeriga 2013 yil mobaynida 420 mln m³ suv yetkazib bergan. SIU tomonidan 2010-2013 yillar davomida 276-420 mln m³ suv resurslari yetkazib berilib, o'rganilgan davr mobaynida suv ta'minoti 144 mln m³ ga yoki 52,2%ga oshgan.

3. Yetkazib berilgan suv miqdoriga jami 2010 yilda 201,3 mln so'm, 2011 yilda 210,4 mln so'm, 2012 yilda 220,8 mln so'm sarflar qilinib, 2013 yilda 245,5 mln so'm sarflangan. Undirilgan mablag' 2010-2012 yillarda 100% ni tashkilo etgan bo'lsa, 2013 yilda undirilgan mablag' 59,9%ni yoki 147 mln so'mni tashkil etgan. Undirilgan mablag'ning 70,1-72,2%i fermer xo'jaliklaridan undirilgan bo'lsa, boshqa manbalardan qoplanishi 8,7-3,7% boshqa manbalardan qoplangan. Oqdaryo tumani SIUda jami 28657 ga yer maydoniga resursi yetkazib berilib, suv yetkazib berish sarflari 245,5 mln so'msarflangan, sh.j.: suv resurslari yetkazib berish xarajatlari paxtachilikda 147,9 mln so'm va g'allachilikda 87,3 mln so'mni tashkil etgan. 1 ga yerga paxtachilikda 9840,8 m³ va g'allachilikda 5282,6 m³ suv resurslari yetkazilib berilib, 1 s hosil uchun paxtachilikda 720,3 so'm, g'allachilikda 138,2 so'm suv uchun sarflar qilingan. 1 m³ suvni yetkazib berish xarajatlari o'rtacha – 1,71 so'mni tashkil etib, bu raqam viloyat miqyosidagi o'rtacha sarflardan qariyb 10 baravar arzon bo'lib, bunga tumanda nasos orqali sug'orishning yo'qligi sabab bo'lgan.

4. Oqdaryo tumani Oqdaryo sharshara Navro'z SIU hududidagi suvdan foydalanuvchilar uyushmasi bilan 2013 yilda 409 shartnoma tuzilib, uning soni 2010 yil bilan taqqoslaganda 33 taga yoki 7,5%ga kamaygan. 1 shartnoma hisobiga to'g'ri keladigan o'rtacha suv resursi bilan ta'minlangan maydon: 2010 yilda - 64,8 ga, 2011 yilda - 66 ga, 2012 yilda-68,2 ga, 2013 yilda - 70,1 gani tashkil etib, o'rganilgan davrda 5,3ga yoki 8,1%ga oshgan. Suv iste'molchilariga 1 shartnoma hisobiga yetkazib berilgan suv resursi miqdori: 2010 yilda - 624,4 ming m³, 2013 yilda -1026,9 ming m³ bo'lib,tahlil etilgan yillar davomida 402,5 ming m³ yoki 64,5%ga ta'minot darajasida o'sish kuzatildi.

5. Oqdaryo tumani Oqdaryo tumani Oqdaryo sharshara Navro'z SIUda 1 shartnoma hisobiga o'rtacha sarf-xarajatlar : 2010 yilda -455,4 ming so'm, 2013

yilda 600,2 ming so'm bo'lib, 2010-2013 yillar davomida 144,8 ming so'mga yoki 31,8%ga oshgan.

6. Suv resurslaridan foydalanishda ko'p fermer xo'jaliklarida samarasiz foydalanish holatlari uchramoqda. Bunga misol sifatida yerlarning notekisligi, huda-bexuda suvdan foydalanish, suv resurslarining maqsadsiz oqib yotishi va hakoazolarni keltirish mumkin.

Mamlakatimizda olib borilayotgan suv islohotlarining amalda yaxshi natijalarni berishi uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

1. Suv resurslaridan oqilona foydalanishni ob'yektiv zaruriyatini quyidagilar deb hisoblanadi:

- Suv xo'jaligi tizimida to'liq bozor munosabatlarining qaror topishi;
- turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarining qaror topishi;
- irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarining texnik soz va zamonaviy inshootlarni qurish;
- suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish;
- bozor tamoyillariga asoslangan boshqarishni joriy etish va hakoza.

2. SIU faoliyatini muvofiqlashtirish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun quyidagi omillarga e'tiborni qaratadi:

- SIU bilan foydalanuvchilar o'ratsidagi shartnomalarning to'liq ijrosini ta'minlash;
- SIUlar uchun ajratiladigan mablag'larni to'liq o'zlashtirishga erishish;
- uyushmalarni tajribali iqtisodchi-hisobchi mutaxassislar bilan ta'minlash;
- ular moddiy-texnika bazasini ta'minlash va hakoza.

3. Suvdan foydalanish samaradorligi yer resurslarining tekisligiga bog'iliq bo'lmoqda: Yer tekislash afzalliklari:

- Sug'orish samaradorligi oshadi. Chunki yer notekis bo'lgani sababli egatlarni qisqa muddatda sug'orishni ko'zlab, asosiy ariqdan har 100-200 metr masofada olinadigan vaqtinchalik o'q ariqlar olib tashlanadi. Ma'lumki, o'q ariqlar

ekinmaydoni yuzasining 10-15% egallaydi va ular olib tashlansa, dehqon bo'shagan yerlarda qo'shimcha hosil yetishtirish hisobiga ko'proq daromad olishi mumkin);

- Sug'orishga sarflanadigan suv samaradorligi oshadi, chunki yer yuzasi qanchalik tekis bo'lsa, ariqlardagi suv ham shunchalik tez harakat qiladi, demak, sarflanadigan suv hajmi kamayadi;

- tuproq zaxlanishi jarayoni bilan bog'liq muammolar soni kamayadi;

- sifon yordamida zamonaviy sug'orish usullaridan foydalanish imkoniyati tug'iladi;

- kamroq mehnat talab qilinadi (chunki suvni egat bo'ylab yetaklab yurishga ehtiyoj qolmaydi. Sug'orishlar soni kamaygani sari sarflanadigan ish soatlari (mehnat xarajatlari) ham qisqaradi ;

- sug'orish vaqti tejaladi;

- ekin maydoniga yo'naltiriladigan suv hajmi kamayadi (buning natijasida, ekin maydoni dadrenaj tizimi samaradorligi bir muncha oshadi va qishloq xo'jaligi mashinalarining dala bo'ylab harakati yaxshilanadi).

- Sho'rlanishning oldi olinadi (zaxlanishni kamaytirish yoki yo'qotish orqali sho'rlanishning asosiy omili bo'lmish yer osti suvlari sathi ko'tarilishining oldini olish mumkin);

- Tuproq eroziyasi rivojlanishining oldini olish osonlashadi;

- Qo'llaniladigan o'g'itlar samaradorligi nisbatan yuqori bo'ladi;

- ekinlarning bir xilda rivojlanishi va tezroq o'sishi ta'minlanadi;

- yerga chuqur (40-65 sm chuqurlikda) ishlov berish ekinlarning chuqur ildiz otishini ta'minlaydi, natijasida yerosti suvlari va oziq moddalardan foydalanish mumkin bo'ladi va ekin maydonini nisbatan kamroq sug'orish imkoniyati yaratiladi;

- hosil yetishtirish xarajatlari kamayadi.

4. Sug'orishda yangi va tejamkor texnologiyalardan foydalanishni joriy etish. Sun'iy sug'orish o'tkazilganda quyidagilar ta'minlanishi kerak:

- yuqori ish unumdorligi;

- kam suv sarflab, yuqori meliorativ ko'rsatkichlarga erishish;
- sug'orish tarmoqlarining yuqori texnik ko'rsatkichlarga ega bo'lishi va boshqalar.

5. Sug'orishda tomchilatib sug'orishni joriy etish. Birgina g'o'zani tomchilatib sug'orish quyidagi afzalliklarga ega:

- Paxta bir vaqtda va bir me'yorda sug'oriladi;
- Mavsumiy suv me'yori 31,9% tejaladi;
- Yoqilg'i moylash materiallari – 30-40%, mineral o'g'itlar – 20-25% tejaladi, begona o'tlar kamayadi, tuproq tarkibi yaxshilanadi;
- Tuproq eroziyasi to'xtaydi;
- Hosildorlik 4-5s/ga.ga oshadi;
- G'o'za kamalliklari kamayib, bir vaqtda bir ishchi 10 soatda 4 ga yerni sug'orishi mumkin»

6. Mamlakat suv xo'jaligi va iqtisodiy infratuzilmani xavfsizligi darajasini o'rta va uzoq muddatli ta'minlash. Buning uchun qo'shimcha suv omborlari qurish va suv chiqarish inshootlarini takomillashtirish;

7. Iqtisodiy jihatdan ekin strukturasini takomillashtirish asosida mavjud suv resurslarini tejab ishlatish;

8. Suvni tejamli va samarali ishlatishni rag'batlantirish. Sug'orishning har bir usuli va unga mos texnikasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Sug'oriladigan ekindan eng yuqori hosil olishni ta'minlaydigan suv va u bilan bog'liq havo, ozuqa, tuz rejimlarini saqlash;
- Unumdor qatlamda kerakli namlikni hosil qilish va uning ekin maydoni bo'ylab bir tekis taqsimlanishini ta'minlash;
- Tuproqning qumoq strukturasini saqlash;
- Sug'oriladigan maydondagi ekinlarni mexanizasiyalashtirish uchun maksimal shart-sharoitlaryaratish;
- Suvdan foydalanish vaqtida undan boricha samarali foydalanish.

9. Asoslangan suv iste'moli limitini aniqlash va unga rioya etilishini nazorat qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –T.: O'zbekiston, 2008
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari sonini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. №842 21.04.2008
3. O'zbekistonda atrof-muhitning holati va tabiiy resurslardan foydalanish: faktlar va raqamlar. Statistik to'plam. –Toshkent, 2010.
4. O'zbekiston Iqtisodiyoti axborot va tahliliy sharh. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi. -Toshkent, 2010.
5. O'zbekiston tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi. Milliy ma'ruza. Atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishning holati. 2010.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. O'zbekiston Respublikasida suvdan foydalanish va suv iste'moli tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. -Toshkent, 2013. -12-son, 155-modda.
7. Karimov I. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir//Xalq so'zi. 28.01.2010.
8. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi: Prezident Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi//Xalq so'zi. 20.01.2012.
9. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi: Prezident Islom Karimovning 2013-yilning asosiy yakunlari va 2014-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi//Xalq so'zi. 18.01.2014.

10. Abdug'aniyev A., Sultanov N. Irrigatsiya va meliorasiyaga sarflanadigan investitsiyalarning samaradorligini oshirish//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2012. -№1. -39-40-b.
11. Abdullayev A.A., Aybeshov X.A. Fermer xo'jaligi iqtisodi. –Andijon: Aloqachi, 2008. -187 b.
12. Azizqulov B. Ilg'or texnologiyalar iqtisodiy samaradorligi// O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2008. – 9-son. -35-b.
13. Bezborodov K., Komilov B., Esanbekov M. Tomchilatib sug'orish: qulay, arzon va samarali//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2008. -3-son. -7-b.
14. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: EXTREMUM PRESS, 2011. -416 b.
15. Eshqulov A. Hayot faoliyati havfsizligi. O'quv qo'llanma. –Qarshi, 2009.
16. Hamrayev Sh., Sheraliyev N. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishda suv iste'molchilari uyushmasining o'rni. –Toshkent, 2006.
17. Jones W.I. Global Water Partnership // Rosegrant and Binswanger. - Dublin Statement. – 2008. – 30-32 b.
18. Matkarimov M.M. Suv tejovchi va muhofaza qiluvchi texnologiyalarni qo'llash jarayonlarini boshqarish. -Samarqand, 2006.
19. Murtazayev O., G'aniyev I., Hasanov Sh., Axrorov F. Agrar siyosat va qishloq xo'jalik bozorlari. –Samarqand: N.Doba, 2009.
20. Murtazayev O., Ibragimov G'. Agroservis xizmatlarining nazariy asoslari va yo'nalishlari // Yosh olimlarning agrar sohadagi yutuqlari va innovasion imkoniyatlari: Asp., dokt. va tadq. ilm.-amal. anj. to'pl. – Samarqand, 2010. – 59-62-b.
21. Nuriddinova Sh. Qishloq xo'jaligidagi islohotlarning natija va istiqbollari//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2010. -11-son. -24-b.
22. Perry C. Water at any price? Issues and options in charging for irrigation water // Irrigation and drainage. 2008. – 3-issue. – 24-27 b.

- 23.Qannazarova Z., Xajiyev M. Suv xo'jaligini boshqarish hamda resurslarini himoya qilish //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2013. -№9. -29-b.
- 24.Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o'rinbosarlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchilari, tuman va shahar hokimlarining mintaqaviy seminarlari materiallari. 14.01– 01.02.2009.
- 25.Qosimov N. Suvni muhofazalash va resurslardan oqilona foydalanish//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2013. -№3. -35-b.
- 26.Qudratov T. O'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligining statistik tahlili. -Samarqand, 2010.
- 27.Raximov Sh, Soy E. Tomchilatib sug'orish – tejamkor usul. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2008. –№6. -3-b.
- 28.Raximov Sh, Soy E. Tomchilatib sug'orish – tejamkor usul. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2008. -6-son. -3-b.
- 29.Rizayev T. Suv iste'molchilari uyushmalarining faoliyatini muvofiqlashtirish muammolari va yechimlari//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2013. -№2. -35-b.
- 30.Shoxxo'jayev F. Yer-suv resurslaridan unumli foydalanaylik//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2012. -№1. -34-b.
- 31.Shoxxo'jayev F. Yer-suv resurslaridan unumli foydalanaylik//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2012. -№1. -34-b.
- 32.Umarov U.U., Mirzayev S.Sh. Suv resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish. Ma'ruza matnlari. –T.: O'zMU, 2007.
- 33.Umarov U.U., Mirzayev S.Sh. Suv resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish. –T.: O'zMU, 2010.
- 34.Umurzoqov U.T., Toshboyev A.Sh., Rashidov Sh., Toshboyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. –T.: Iqtisod-moliya, 2008. - 267 b.
- 35.Umurzoqov U.T., Toshboyev A.Sh., Toshboyev A.A. Fermer xo'jaligi iqtisodi. –T.: Iqtisod-moliya, 2008. -276 b.

- 36.Vaxobova G., Ismoilova M. Qishloqda bozor infrastrukturasini// Iqtisod va hisobot. –Toshkent, 2008. -10-son. -19-b.
- 37.Xodiyev B.Yu. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.
- 38.Xudoyberganov Z. Suv resurslaridan samarali foydalanishning iqtisodiy asoslari//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2008. -№2. -25-b.
39. Xudoyberganov Z. Suv resurslaridan samarali foydalanishning iqtisodiy asoslari//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2008. -2-son. -25-b.
40. Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma'lumotlari. 2010-2013 yillar.
41. Oqdaryo tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi hisobot ma'lumotlari. 2010-2013 yillar.
- 42.Oqdaryo tumani SIU ma'lumotlari 2010-2013 yillar.
- 43.Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari. 2010-2013 yillar.
44. Internet ma'lumotlari:
- 44.1. www.agro.uz – Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi sayti
- 44.2. www.edu.uz - Oliy ta'lim sayti
- 44.3. www.lex.uz –qonun hujjatlari sayti
- 44.4. www.livestock.uz – O'zbekiston chorvachiligi sayti
- 44.5. www.samqxi.uz– Samarqand qishloq xo'jalik instituti sayti
- 44.6. www.usda.gov – AQSh qishloq xo'jalik departamenti sayti
- 44.7. www.uz.bir.uz, – Biznes informasion resurslar saytlari
- 44.8. www.uza.uz – O'zbekiston Axborot agentligi sayti
- 44.9. www.uzreport.com – biznes hisobot portali
- 44.10. www.ziyo.net – Ziyonet ta'lim portali